



O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI
HUZURIDAGI PEDAGOG KADR'LARNI
QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING
MALAKASINI OSHIRISH TARMOQ
(MINTAQAVIY) MARKAZI

SOTSIOLOGIK TADQIQOTLAR METODOLOGIYASI

MODULI BO'YICHA
O'QUV-USLUBIY
MAJMUA

2024

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**OLIY TA'LIM TIZIMI PEDAGOG VA RAHBAR KADRLARINI QAYTA
TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISHNI TASHKIL
ETISH BOSH ILMIY - METODIK MARKAZI**

**O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI PEDAGOG
KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI
OSHIRISH TARMOQ (MINTAQAVIY) MARKAZI**

**“SOTSIOLOGIK TADQIQOTLAR METODOLOGIYASI”
MODULI BO'YICHA O'QUV-USLUBIY MAJMUA**

Toshkent - 2024

Mazkur o‘quv-uslubiy majmua Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalarvazirligining 2023-yil 25-avgustdagi 391-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan o‘quv reja va dastur asosida tayyorlandi.

Tuzuvchi:

O‘zMU “Sotsiologiya” kafedrasи professori,sots.f.n., prof. K.Kalanov

Taqrizchi:

Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat texnika universiteti dotsenti, sotsiologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori PhD, F. Abduvaliev

O‘quv-uslubiy majmua O‘zbekiston Milliy universiteti Kengashining qarori bilan nashrga tavsiya qilingan (2024-yil 20-yanvardagi № 4/2 -sonli bayonnomasi)

MUNDARIJA

I. ISHCHI DASTUR	Ошибка! Закладка не определена.
II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA’LIM METODLARI	Ошибка! Закладка не определена.
III. NAZARIY MA’LUMOTLAR.....	23
IV. AMALIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI.....	Ошибка! Закладка не определена.
V. MUSTAQIL TA’LIM MAVZULARI.....	Ошибка! Закладка не определена.
VI. KEYSLAR BANKI.....	Ошибка! Закладка не определена.
VII. GLOSSARIY	Ошибка! Закладка не определена.
VIII. ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....	Ошибка! Закладка не определена.

I.ISHCHI DASTUR

Kirish

Ushbu dastur O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi tasdiqlangan “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 12 iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF-4732-son, 2019-yil 27-avgustdagagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5789-son, 2019-yil 8-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son, 2022-yil 28- yanvardagi “2022- 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son, 2023-yil 25-yanvardagi “Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yishga doir birinchi navbatdagi tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-14-son Farmonlari, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 23-sentabrdagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 797-son Qarorida belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo‘lib, u oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarining kasb mahorati hamda innovatsion kompetentligini rivojlantirish, sohaga oid ilg‘or xorijiy tajribalar, yangi bilim va malakalarni o‘zlashtirish, shuningdek amaliyotga joriy etish ko‘nikmalarini takomillashtirishni maqsad qiladi.

Dastur doirasida berilayotgan mavzular ta’lim sohasi bo‘yicha pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish mazmuni, sifati va ularning tayyorgarligiga qo‘yiladigan umumiy malaka talablari va o‘quv rejalarini asosida shakllantirilgan bo‘lib, uning mazmuni yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi va jamiyatning ma’naviy asoslarini yoritib berish, oliy ta’limning normativ-huquqiy asoslari bo‘yicha ta’lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etish, pedagogik faoliyatda raqamlı kompetensiyalarni rivojlantirish, ilmiy-innovatsion faoliyat darajasini oshirish, pedagogning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish, ta’lim sifatini ta’minlashda baholash metodikalaridan samarali foydalanish, biologiya fanini o‘qitishda IT (information texnologiyalar) ma’lumot materiallaridan foydalanish, biologik makromolekulalar va ularning axamiyatini ochib berish, organizmda energiya almashinuv jarayonlarini tahlil etish va baholash bo‘yicha tegishli bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan.

Qayta tayyorlash va malaka oshirish kursining o‘quv dasturi quyidagi modullar mazmunini o‘z ichiga qamrab oladi:

Kursning maqsadi va vazifalari

Oliy ta’lim muasasalari pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish kursining **maqsadi** pedagog kadrlarning innovatsion yondoshuvlar asosida o‘quv-tarbiyaviy jarayonlarni yuksak ilmiy-metodik darajada loyihalashtirish, sohadagi ilg‘or tajribalar, zamonaviy bilim va malakalarini o‘zlashtirish va amaliyotga joriy etishlari uchun zarur bo‘ladigan kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalarini takomillashtirish, shuningdek ularning ijodiy faolligini rivojlantirishdan iborat

Kursning vazifalariga quyidagilar kiradi:

“**Sotsiologiya**” yo‘nalishida pedagog kadrlarning kasbiy bilim, ko‘nikma, malakalarini takomillashtirish va rivojlantirish;

- pedagoglarning ijodiy-innovatsion faoliyatini oshirish;
- pedagog kadrlar tomonidan zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, zamonaviy ta’lim va innovatsion texnologiyalar sohasidagi ilg‘or xorijiy tajribalarning o‘zlashtirilishini ta’minlash;
- o‘quv jarayonini tashkil etish va uning sifatini ta’minlash borasidagi ilg‘or xorijiy tajribalar, zamonaviy yondashuvlarni o‘zlashtirish;
- “**Sotsiologiya**” yo‘nalishida qayta tayyorlash va malaka oshirish jarayonlarini fan va ishlab chiqarishdagi innovatsiyalar bilan o‘zaro integratsiyasini ta’minlash.

Kurs yakunida tinglovchilarning bilim, ko‘nikma va malakalari hamda kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar:

Qayta tayyorlash va malaka oshirish kursining o‘quv modullari bo‘yicha tinglovchilar quyidagi yangi bilim, ko‘nikma, malaka hamda kompetensiyalarga ega bo‘lishlari talab etiladi:

Tinglovchi:

- 2022- 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasining davlat va jamiyat hayotini takomillashtirishdagi o‘rni va ahamiyatini;
- O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining asosiy prinsiplarini;
- Oliy ta’lim sohasiga oid qonun hujjatlari va ularning mazmunini;
- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining oliy ta’lim tizimiga oid farmonlari, qarorlarini;
- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining oliy ta’lim tizimiga tegishli qarorlarini;
- Oliy ta’lim, fan va innovatsiya vazirligining ta’lim jarayonlarini rejalashtirish va tashkil etishga oid buyruqlarini;

- Davlat ta’lim standartlari, ta’lim yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklarining Malaka talablari, o‘quv rejalar, fan dasturlari va ularga qo‘yiladigan talablarni, o‘quv yuklamalarini rejalashtirish va ularning bajarilishini nazorat qilish usullarini;
- ta’lim jarayonini raqamli transformatsiyasini;
- raqamli ta’lim resurslari va dasturiy mahsulotlarini;
- raqamli ta’lim resursini pedagogik loyihalash texnologiyasini;
- mediasavodxonlik va xavfsizlik asoslarini;
- raqamli ta’lim resurslarini loyihalash uchun asosiy talablarni;
- jahonda oliy ta’lim rivojlanish tendensiyalari: umumiy trendlar va strategik yo‘nalishlarni;
- zamonaviy ta’limning global trendlarini;
- inson kapitalining iqtisodiy o‘sishning asosiy omili sifatida rivojlanishida ta’limning yoshdagи ahamiyatini;
- oliy ta’limning zamonaviy integratsiyasi: global va mintaqaviy makonda raqobatchilikdagi ustuvorliklari, universitetlarning xalqaro va milliy reytingini;
- xalqaro reyting turlari va ularning indikatorlarini;
- zamonaviy universitet jamiyatning faol, ko‘pqirrali va samarali faoliyat yurituvchi instituti sifatidagi uchta yirik vazifalarini;
- universitetlarning zamonaviy modellarini;
- zamonaviy kelajak universitetlarning beshta asosiy modellarini;
- tadbirkorlik universiteti faoliyatining muhim yo‘nalishlarini;
- pedagogning kasbiy kompetensiyaning rivojlantirishning nazariy asoslarini;
- innovatsion ta’lim muhiti sharoitida pedagogning kasbiy kompetensiyaning rivojlantirish yo‘llarini;
- kasbiy kompetensiyalarning mazmun va mohiyatini;
- kasbiy kompetensiylar va ularning o‘ziga xos xususiyatlarini;
- pedagogik texnikaning asosiy komponentlarini;
- pedagogik texnikani shakllantirish yo‘llarini;
- kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish jarayonini tashkil etishda innovatsion, akmeologik, aksiologik, kreativ, refleksiv, texnologik, kompetentli, psixologik, andragogik yondashuvlar va xalqaro tajribalar hamda ularning kasbiy kometensiyalarni rivojlantirishga ta’sirini;
- kasbiy kompetetnsiyalarni rivojlantirish jarayonida pedagogik deontologiyaning roli, ahamiyatini;
- kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishda uchraydigan to‘siqlarni yechishda, to‘g‘ri harakatlar qilishda pedagogning kompetentlik va kreativlik darajasi, pedagogik kvalimetriyasini;

- talabalar kasbiy tayyorgarlik sifatini kompleks baholashning nazariyasini;
- ta’lim sifatiga ta’sir etuvchi omillarni;
- kredit-modul tizimida talabalarning bilimi, ko‘nikmasi, malakasi va kompetensiyalarini nazorat qilish va baholashning o‘ziga xos xususiyatlari, didaktik funksiyalarini;
- baholash turlari,tamoyillari va mezonlarini;
- sotsiologik tadqiqotlar metodologiyasini;
- miqdoriy va sifatiy sotsiologik tadqiqotlarning amaliy va empirik jihatlarini;
- empirik sotsiologik tadqiqotlar jarayonidagi asosiy tushunchalar: metodologiya, metodika, texnika, protsedurani;
- sotsiologik tadqiqotlarning nazariy-metodologik strukturasini;
- miqdoriy tadqiqotlardagi asosiy harakat turlari: tadqiqot dasturini tayyorlash, ma’lumotlar yig‘ish, ma’lumotlarni;
- sifatiy sotsiologik tadqiqotlar dasturi. Sotsiologik tadqiqotlarda metodologiyaning o‘rni va ahamiyatini;
- sifatiy sotsiologik tadqiqotlar texnikasini;
- sifatiy sotsiologik tadqiqot bosqichlarini;
- identiklik sotsiologiyasining vujudga kelishi, ob’ekti va predmetini;
- identiklik va mentalitet tamoyillari, qonuniyatları, funksiyalarini;
- multikulturalizm va marginallikni;
- etnosotsiologiya va din sotsiologiyasi fanlarida nazariy-uslubiy jihatdan identiklik g‘oyasini zamonaviy jihatdan tadqiq etilishini;
- etnosotsiologiya va sotsial antropologiya fanlarida identiklik sotsiologiyasining fanlar tizimidagi o‘rnini; identiklikning ijtimoiy morfologiyasi va tipologiyasini; identiklik va mentalitet shakllanishida ijtimoiy me’yorlar, hulq-atvor va hayot tarzining ta’sirini ***bilishi*** kerak.

Tinglovchi:

- 2022- 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasining asosiy yo‘nalish va maqsadlarini tahlil etish va baholash;
- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Oliy ta’lim tizimiga tegishli qarorlari asosida ta’lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etish;
- xorijiy tajribalar asosida malaka talablari, o‘quv rejalarini va fan dasturlarini takomillashtirish;
- multimedia va infografika asosida interaktiv didaktik mayeriallar yaratish va bulut xizmatlarida saqlash;
- masofiviy ta’lim platformalari uchun video kontent yaratish;

- Internetda mualliflik huquqlarini himoya qilish usullaridan foydalanish;
- raqamli ta’lim resurslari sifatini baholash;
- OTMlarni reyting bo‘yicha ranjirlash;
- jahon universitetlari reytingini tahlil etish va baholash;
- universitetlarni mustaqil baholash yondashuvlarini aniqlashtirish;
- tadbirkorlik universitetiga o‘tish uchun zarur bo‘ladigan o‘zgarishlarni aniqlash;
- Universitet 1.0 dan Universitet 3.0 modeliga o‘tish borasidagi muammolarni aniqlash;
- zamonaviy tadbirkorlik universiteti modeli tamoyillarini o‘zlashtirish;
- pedagoglarning kreativ potensiali tushunchasi va mohiyatini oolib berish;
- pedagoglar kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning innovatsion texnologiyalarini qo‘llash;
- o‘qituvchi faoliyatida pedagogik texnikaning axamiyatini yoritib berish;
- tinglovchilar diqqatini o‘ziga tortish usullaridan foydalanish;
- kasbiy kompetentsiyalarni shakllantirish va rivojlantirish yo‘llarini tahlil etish;
- kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish jarayonida uchraydigan to‘siqlar, qiyinchiliklar va ularni bartaraf etish;
 - talabalarning o‘quv auditoriyadagi faoliyatini baholash;
 - talabalarning kurs ishi, bitiruv malakaviy ishi, o‘quv-malakaviy amaliyot (mehnat faoliyati)ini nazorat qilish;
 - baholashning miqdor va sifat tahlilini amalga oshirish;
 - tadqiqotlar o‘tkazish metodologiyasi, texnikasi, protsedurasi va metodlarini aniqlash, farqlari va o‘xshash jihatlarini tahlil etish;
 - sifatiy sotsiologik tadqiqotlar dasturidan foydalanish;
 - sotsiologik tadqiqotlarda identiklikning o‘lchov strategiyalarini prognozlashtirishga oid qarashlarning tahlil etish;
 - inson kapitalini tadqiq etishda identiklikning nazariy va amaliy tadqiqot metodlarini qo‘llash ***ko‘nikmalariga*** ega bo‘lishi lozim.

Tinglovchi:

- “Yangi O‘zbekiston – ma’rifatli jamiyat” konsepsiyasining mazmun-mohiyatini yoritib berish;
- Oliy ta’lim, fan va innovatsiya vazirligining ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etishga oid buyruqlari, Davlat ta’lim standartlari, ta’lim yo‘nalishlarining va

magistratura mutaxassisliklarining malaka talablari, o‘quv rejalar va fan dasturlarini takomillashtirish;

- o‘quv yuklamalarni rejalashtirish va ularning bajarilishini nazorat qilish;
- meyoriy uslubiy hujjatlarni ishlab chiqish amaliyotini takomillashtirish mexanizmlarini tahlil etish;
- an’anaviy va raqamli ta’limda pedagogik dizaynning xususiyatlarini ochib berish;
 - onlayn mashg‘ulotlarni tashkil etishda raqamli texnologiyalardan foydalanish;
 - mediasavodxonlik va xavfsizlik asoslarini o‘zlashtirish;
 - pedagogik faoliyatda raqamli kompetensiyalarni rivojlantirish;
 - raqamli ta’lim resurslaridan foydalanish;
 - xalqaro reyting turlari va ularning indikatorlarining ahamiyatini ochib berish;
- OTM reytingiga ta’sir etuvchi omillarni tahlil etish;
- universitetlarning zamonaviy modellarini o‘rganish;
- OTM bitiruvchilari va xodimlari tomonidan texnologiyalar transferiga litsenziyalar oluvchi startaplarni shakllantirish va yaratish;
 - professor-o‘qituvchilarning tadqiqotchi sifatidagi nashr faolligini rivojlantirish istiqbollarini tahlil etish;
 - innovatsion ta’lim muhitni sharoitida pedagogning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish;
 - pedagog kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish hususiyatlarini tahlil etish va baholash;
 - ijtimoiy va kasbiy tajribaga asoslangan intellektual mashqlarni ishlab chiqish;
 - o‘quv jarayoni ishtirokchilarini bir-birlari bilan tanishtirish, samimiyo do‘stona munosabat va ijodiy muhitni yuzaga keltirish, tinglovchilarning ijodiy imkoniyati va shaxsiy sifatlarini ochish, tinglovchilarning hamkorlikda ishlashlari uchun qulay sharoitni vujudga keltirish;
 - tinglovchilarning kasbiy kompetensiyalarini o‘rganish, tanishish;
 - kasbiy kompetetnsiyalarni rivojlantirish jarayonida pedagogik deontologiyaning roli, ahamiyatini ochib berish;
 - ta’lim sifatiga ta’sir etuvchi omillar (moddiy-texnik baza, professor-o‘qituvchilarning salohiyati va o‘quv-metodik ta’mint)ni tahlil etish va baholash;
 - talabalarning o‘quv auditoriyadan tashqari faoliyatini baholash;
 - talabalarning o‘quv auditoriyadan tashqari faoliyatini baholashda o‘quv topshiriqlari (reproduktiv, produktiv, qisman-izlanishli, kreativ (ijodiy) murakkablik)ni ishlab chiqish metodikasidan samarali foydalanish;

- sotsiologik tadqiqotlarda metod va metodologiya tushunchalari o'rtasidagi o'zaro aloqadorlikni tahlil etish;
- ma'lumotlar yig'ish metodlarini umumiylashtirish; va turlarini ajratish;
- identiklik, o'zlikni anglash va mental xususiyatlarini ilmiy baholashga oid zamonaviy nazariya va metodologiyalarini sotsiologik baholash;
- o'zgaruvchan axborotlashgan dunyoda identiklikning o'rni va ahamiyatini ochib berish **malakalariga** ega bo'lishi zarur.

Tinglovchi:

- Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi va jamiyatning ma'naviy asoslarini mazmun-mohiyatini yoritib berish;
- O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiya vazirligining buyruqlari asosida ta'lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etish;
- Davlat ta'lim standartlari, malaka talablari, o'quv rejalar va fan dasturlar asosida fanning ishchi dasturini ishlab chiqish amal qilish va ularni ijrosini ta'minlash;
- raqamli ta'lim resurslari va dasturiy mahsulotlarini o'quv jarayoniga faol tatbiq etilishini tashkil etish;
- raqamli ta'lim resursini pedagogik loyihalash texnologiyasi asoslarini o'zlashtirish;
- raqamli ta'lim muhitida pedagogik dizaynga oid innovatsiyalarini amaliyotga tatbiq etish;
- universitetlarning xalqaro va milliy reytingini baholash;
- OTMlarda talim, ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish, ilmiy tadqiqot natijalarini tijoratlashtirish yo'llarini tahlil etish va amaliyotga tadbiq etish;
- «Amaliyotchi professorlar» (PoP, Professor of Practice) modelini qo'llash;
- professor-o'qituvchilarining tadqiqotchi sifatidagi nashr faolligini rivojlantirish istiqbollarini yoritib berish;
- pedagogning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning nazariy asoslarini amaliyotga tadbiq etish;
- pedagogning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik-psixologik trayektoriyalarini ishlab chiqish;
- kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish jarayonida uchraydigan to'siqlarning xilma-xilligi va o'ziga xos xususiyatlari, sabablarini amaliy tomonlarini yoritish, ularni yechish bosqichlarini guruh bilan birgalikda aniqlash;
- talabalar kasbiy tayyorgarlik sifatini kompleks baholash;
- talabalar kasbiy tayyorgarlik sifatini kompleks baholashning elektron monitoring tizimini yuritish;

- talabalarning ta’limiy (o‘quv predmetlari), tarbiyaviy (ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar) va rivojlantiruvchi (ilmiy-tadqiqot ishi, start-up loyihalar) maqsadlarini baholash;
- miqdoriy tadqiqotlardagi asosiy harakat turlari: tadqiqot dasturini tayyorlash, ma’lumotlar yig‘ish, ma’lumotlar tahlil etish;
- sotsiologik tadqiqotlarda metodologiyaning o‘rni va ahamiyatini yoritib berish;
- identiklik sotsiologiyasi asoslarini o‘zlashtirish;
- fundamental va amaliy tadqiqotlar doirasida identiklik muammoning horijiy tajribaga asoslanib empirik imkoniyatlarini amalga oshirish;
- zamonaviy akademik sotsiologiya ilmiy maktablarining shakllanishi va rivojlanishining sotsial qonuniyatlarga o‘tish jarayonlarini kuzatish *kompetensiyalariga* ega bo‘lishi lozim.

Modulni tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha tavsiyalar

- Modulni o‘qitish ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlar shaklida olib boriladi.
 - Modulni o‘qitish jarayonida ta’limning zamonaviy metodlari, pedagogik texnologiyalar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo‘llanilishi nazarda tutilgan:
 - ma’ruza darslarida zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida prezentatsion va elektron-didaktik texnologiyalardan;
 - o‘tkaziladigan amaliy mashg‘ulotlarda texnik vositalardan, ekspress-so‘rovlari, test so‘rovlari, aqliy hujum, guruhli fikrlash, kichik guruhlar bilan ishslash, kollokvium o‘tkazish, va boshqa interaktiv ta’lim usullarini qo‘llash nazarda tutiladi.

Modulning o‘quv rejadagi boshqa modullar bilan bog‘liqligi va uzviyligi

“Sotsiologik tadqiqotlar metodologiyasi” moduli mazmuni o‘quv rejadagi “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi va jamiyatning ma’naviy asoslari”, “Oliy ta’limning normativ-huquqiy asoslari”, “Pedagogik faoliyatda raqamli kompetensiyalar” “Ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish”, “Pedagogning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish” “Ta’lim sifatini ta’minlashda baholash metodikalari”, “Identiklik sotsiologiyasi” mutaxassislik o‘quv modullari bilan uzviy bog‘langan holda pedagoglarning ta’lim jarayonida kasbiy pedagogik tayyorgarlik darajasini oshirishga xizmat qiladi.

Modulning oliv ta'limdagi o'rni

Modulni o'zlashtirish orqali tinglovchilar ta'lim jarayonida genom tadqiq etishga, katta ma'lumotlar va nukleotid va oqsil ketma-ketliklar ma'lumotlar bazasi tizimlaridan foydalanish va amalda qo'llashga doir kasbiy kompetentlikka ega bo'ladilar.

Modul bo'yicha soatlar taqsimoti

№	Modul mavzulari	Auditoriya uquv yuklamasi			
		Jami	jumladan		
			Nazariy	Amaiymashg' ulot	Ko'chma mashg' ulot
1.	Miqdoriy va sifatiy sotsiologik tadqiqotlarning amaliy va empirik jihatlari	4	2	2	
2.	Tadqiqotlar o'tkazish metodologiyasi, texnikasi, protsedurasi va metodlarini aniqlash, farqlari va o'xshash jihatlari	10	2	2	6
3.	Sifatiy sotsiologik tadqiqotlar dasturi.	4	2	2	
4.	Adabiyotlar, hujjatlar, birlamchi ma'lumotlar tahlili	10	2	2	6
	Jami:	28	8	8	12

NAZARIY VA AMALIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI

1-mavzu: Miqdoriy va sifatiy sotsiologik tadqiqotlarning amaliy va empirik jihatlari.

Miqdoriy va sifatiy sotsiologik tadqiqotlarning amaliy va empirik jihatlari. Empirik sotsiologik tadqiqotlar jarayonidagi asosiy tushunchalar: metodologiya, metodika, texnika, protsedura. Sotsiologik tadqiqotlarning nazariy-metodologik strukturasи.

2-mavzu: Tadqiqotlar o'tkazish metodologiyasi, texnikasi, protsedurasi va metodlarini aniqlash, farqlari va o'xshash jihatlari.

Tadqiqotlar o'tkazish metodologiyasi, texnikasi, protsedurasi va metodlarini aniqlash, farqlari va o'xshash jihatlari. Sotsiologik tadqiqotlarda metod va metodologiya tushunchalari o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik. Sifatiy sotsiologik tadqiqotlar texnikasi. Sifatiy sotsiologik tadqiqot bosqichlari. Miqdoriy tadqiqotlardagi asosiy harakat turlari: tadqiqot dasturini tayyorlash, ma'lumotlar yig'ish, ma'lumotlar tahlili.

3-mavzu: Sifatiy sotsiologik tadqiqotlar dasturi.

Sifatiy sotsiologik tadqiqotlar dasturi. Sotsiologik tadqiqotlarda metodologiyaning o'rni va ahamiyati. Sifatiy tadqiqotlarning sikl bosqichlari. Ma'lumotlar yig'ish metodlarini umumiylashtirish va turlari.

4-mavzu: Adabiyotlar, hujjatlar, birlamchi ma'lumotlar tahlili.

Adabiyotlar, hujjatlar, birlamchi ma'lumotlar tahlili. Fokus-guruh, aksilogik, biografik, kuzatish, ekspert baholash, so'rov, afzalliliklarni bilish, kross-madaniy taqqoslash, monografik, juftli taqqoslash metodlari.

KO'CHMA MASHG'ULOT MAZMUNI

Ko'chma mashg'ulot O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi institutlari va universitetning tayanch kafedralarda o'tkaziladi.

O'QITISH SHAKLLARI

- Mazkur modul bo'yicha quyidagi o'qitish shakllaridan foydalaniladi:
- ma'ruzalar, amaliy mashg'ulotlar (ma'lumotlar va texnologiyalarni anglab olish, aqliy qiziqishni rivojlantirish, nazariy bilimlarni mustahkamlash);
- davra suhbatlari (ko'rيلайотган loyiha yechimlari bo'yicha taklif berish qobiliyatini oshirish, eshitish, idrok qilish va mantiqiy xulosalar chiqarish);
- bahs va munozaralar (loyihalar yechimi bo'yicha dalillar va asosli argumentlarni taqdim qilish, eshitish va muammolar yechimini topish qobiliyatini rivojlantirish).

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari

1. Mirziyoyev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O'zbekiston”, 2017. – 488 b.
2. Mirziyoyev SH.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'aramiz. 1-jild. – T.: “O'zbekiston”, 2017. – 592 b.
3. Mirziyoyev SH.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. T.: “O'zbekiston”, 2018. – 507 b.
4. Mirziyoyev SH.M. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'jadi. 3-jild. – T.: “O'zbekiston”, 2019. – 400 b.
5. Mirziyoyev SH.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild. – T.: “O'zbekiston”, 2020. – 400 b.

II. Normativ-huquqiy hujjatlar

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2023.
2. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrda qabul qilingan “Ta'lim to'g'risida”gi Qonuni.

3. O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonuni.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 12 iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF-4732-sonli Farmoni.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 maydagи “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5729-sonli Farmoni.

6. Ўзбекистон Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 avgustdagи “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzlucksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5789-sonli Farmoni.

7. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 23 sentabrdagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 797-sonli Qarori.

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847- sonli Farmoni.

9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli Farmoni.

10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 25-yanvardagi “Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yishga doir birinchi navbatdagi tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-14-sonli Farmoni.

III. Maxsus adabiyotlar

1. Oliy ta’limning meyoriy - huquqiy xujjatlari to‘plami. -T., 2013.

2. O‘rinov V. O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim muassasalarida ECTS kredit-modul tizimi: asosiy tushunchalar va qoidalar. O‘quv qo‘llanma. Nyu Bransvik Universiteti, 2020.

3. The European Higher Education Area. - Joint Declaration of the Ministers of Education. - Bologna, 1999, 19 June.

4. Shaping our Own Future in the European Higher Education Area // Convention of European Higher Education Institutions. - Salamanca, 2001, 29-30 march.

5. Virtualnaya realnost kak novaya issledovatelskaya i obrazovatelnaya sreda. Serfuz D.n. i dr. // JURNAL Nauchno-analiticheskiy журнал «Vestnik Sankt-Peterburgskogo universiteta Gosudarstvennoy protivopojarnoy slujbi MCHS Rossii», 2015. – s.185-197.

6. Ibraymov A.YE. Masofaviy o‘qitishning didaktik tizimi. Metodik qo‘llanma. – T.: “Lesson press”, 2020. -112 b.
7. Ignatova N. Y. Obrazovaniye v sifrovuyu epoxu: monografiya. M-vo obrazovaniya i nauki RF. – Nijniy Tagil: NTI (filial) UrFU, 2017. – 128 s. http://elar.urfu.ru/bitstream/10995/54216/1/978-5-9544-0083-0_2017.pdf
8. Kiryakova A.V, Olxovaya T.A., Mixaylova N.V., Zaporojko V.V. Internet-texnologii na baze LMS Moodle v kompetentnostno-oriyentirovannom obrazovanii: uchebno-metodicheskoye posobiye / A.V. Kiryakova, T.A. Olxovaya, N.V. Mixaylova, V.V. Zaporojko; Orenburgskiy gos. un-t. – Orenburg: OGU, 2011. – 116 s. http://www.osu.ru/docs/fpkp/kiryakova_internet_technologies.pdf
9. Kononyuk A.YE. Oblachniye vichisleniya. – Kiyev, 2018. – 621 s.
10. Oliy ta’lim tizimini raqamli avlodga moslashtirish konsepsiysi. Yevropa Ittifoqi Erasmus+ dasturining ko‘magida. https://hiedtec.ecs.uniruse.bg/pimages/34/3._UZBEKISTAN-CONCEPT-UZ.pdf
11. Emelyanova O. A. Ta’limda bulutli texnologiyalardan foydalanish // Yosh olim. - 2014. - № 3. - S. 907-909.
12. Moodle LMS tizimida masofaviy kurslar yaratish. O‘quv-uslubiy qo‘llanma. – T.: Toshkent farmatsevtika instituti, 2017.
13. Tendensi i razvitiya visshego obrazovaniya v mire i v Rosii. Analiticheskiy doklad-daydjest. - M., 2021.- 198 s.
14. A.S. Zikriyoyev. Dunyo universitetlari reytingidagi tadqiqotchi olimlar orasida o‘zingizni kashf qiling. -T.: Navro‘z,2020. ISBN.9789943659285
15. Sherzod Mustafakulov, Aziz Zikriyoyev, Dilnoza Allanazarova, Tokhir Khasanov, Sokhibmalik Khomidov. Explore Yourself Among World – Class Researchers. Grand OLEditor, Tashkent 2019, ISBN: 8175 25766-0.
16. Ackoff, Russell L., Scientific Method, New York: John Wiley & Sons, 1962.
17. Barzun, Jacques & Graff. F. (1990). The Modern Researcher, Harcourt, Brace Publication: New York.
18. Muslimov N.A va boshqalar. Innovatsion ta’lim texnologiyalari. O‘quv-metodik qo‘llanma. – T.: “Sano-standart”, 2015. – 208 b.
19. Muslimov N.A va boshqalar. Pedagogik kompetentlik va kreativ asoslari. O‘quv-metodik qo‘llanma. – T.: “Sano-standart”, 2015. – 120 b.
20. Pecherkina, A. A. Razvitiye professionalnoy kompetentnosti pedagoga: teoriya i praktika [Tekst] : monografiya / A. A. Pecherkina, E. E. Simanyuk, YE. L. Umnikova : Ural. gos. ped. un-t. – Yekaterinburg : [b.i.], 2011. – 233 s.
21. O.S. Frolova. Formirovaniye innovatsionnoy kompetensii pedagoga v protsesse vnutrishkolnogo povisheniya kvalifikatsii. Diss.k.p.n. Voronej 2018.
22. Kompetensii pedagoga XXI veka [Elektronniy resurs]; sb. materialov resp. konferensii (Minsk, 25 noyab. 2021 g.) / M-vo obrazovaniya Resp.

- Belarus, GUO «Akad. poslediplom. obrazovaniya», OO «Belorus. ped. o-vo». – Minsk: APO, 2021.
23. Ishmuhamedov R.J., M.Mirsoliyeva. O‘quv jarayonida innovatsion ta’lim texnologiyalari. – T.: «Fan va texnologiya», 2017, 60 b.
24. Ishmuhamedov R, Mirsoliyeva M, Akramov A. Rahbarning innovatsion faoliyati. – T.: “Fan va texnologiyalar”, 2019.- 68 b.
25. Kodjaspairova G.M. Pedagogika v sxemax, tablitsax i opornix konspektax./ -M.:Ayris-press, 2016.
26. Natanzon E. Sh. Priyemi pedagogicheskogo vozdeystviya.- M, 2012. - 202 s.
27. Sergeyev I.S. Osnovi pedagogicheskoy deyatelnosti: Uchebnoye posobiye. – SPb.: Piter, 2014.
28. Steve Taylor “Destination” Vocabulary and grammar”, Macmillan 2010.
29. Asekretov O.K., Borisov B.A., Bugakova N.Y. i dr. Sovremenniye obrazovatelnkiye texnologii: pedagogika i psixologiya: monografiya. – Novosibirsk: Izdatelstvo SRNS, 2015. – 318 s.
<http://science.vvsu.ru/files/5040BC65-273B-44BB-98C4-CB5092BE4460.pdf>
30. Barkov S. A., Zubkov V.I. Sotsiologiya organizatsiy. M.: YURAYT, 2018.
31. Barkov S.A. Organizatsiya i rinok: protivoborstvo ili soglashiye? M.: Izd-vo Moskovskogo universiteta, 2008.
32. Belogurov A.Y. Modernizatsiya protsessa podgotovki pedagoga v kontekste innovatsionnogo razvitiya obshchestva: Monografiya. — M.: MAKS Press, 2016. — 116 s. ISBN 978-5-317-05412-0.
33. Bols N. Azbuka media. / Per. s nem. L.Ionin, A.Chernix. - M.: Yevropa, 2011. – 136 s. <http://en.bookfi.net/book/1405627>
34. Giddens E., Satton F. Osnovniye ponyatiya v sotsiologii. – M.: Izd. dom Visshey shkoli ekonomiki, 2018.
35. Gulobod Qudratulloh qizi, R.Ishmuhamedov, M.Normuhammedova. An’anaviy va noan’anaviy ta’lim. – Samarqand: “Imom Buxoriy xalqaro ilmiytadqiqot markazi” nashriyoti, 2019. 312 b.
36. Ibraymov A.YE. Masofaviy o‘qitishning didaktik tizimi. metodik qo‘llanma/tuzuvchi. A.YE. Ibraymov. – Toshkent: “Lesson press”, 2020. 112 bet.
37. Ignatova N. Y. Obrazovaniye v sifrovuyu epoxu: monografiya. M-vo obrazovaniya i nauki RF. – Nijniy Tagil: NTI (filial) UrFU, 2017. – 128 s.
http://elar.urfu.ru/bitstream/10995/54216/1/978-5-9544-0083-0_2017.pdf
38. Yoas X., Knebel V. Sotsialnaya teoriya. 20 vvodnix leksiy. – SPb.: Aleteyya, 2015. <https://search.rsl.ru/ru/record/01007580496>
39. Istorya sotsiologii (XIX – seredina XX veka). – M.: INFRA-M, 2004. <https://search.rsl.ru/ru/record/01002465303>
40. Ishmuhamedov R.J., M.Mirsoliyeva. O‘quv jarayonida innovatsion ta’lim texnologiyalari. – T.: «Fan va texnologiya», 2014. 60 b.

41. Kastels M. Vlast kommunikatsii: ucheb. posobiye / M. Kastels; per. s angl. N. M. Tilevich; pod nauch. red. A. I. Chernix; Nats. issled. un-t «Vissaya shkola ekonomiki». — M.: Izd. dom Visshey shkoli ekonomiki, 2016. — 564 s. <https://yadi.sk/d/UC0SzNIk3Mj7qk>
42. Kimelev Y.A., Polyakova N.L. Modern i protsess individualizatsii: istoricheskiye sudbi individua moderna. — M.: IITS
43. Kolomiyets V. P. Sotsiologiya massovoy kommunikatsii v obshchestve kommunikatsionnogo izobiliya // Sotsiologicheskiye issledovaniya. 2017. №6. S.3-14. http://www.isras.ru/index.php?page_id=2624&jid=6721&jn=socis
44. Konetskaya V.P. Sotsiologiya kommunikatsii / V.P. Konetskaya. - M.: Mejdunarodniy universitet biznesa i upravleniya, 1997. – 304 s.
45. Muslimov N.A va boshqalar. Innovatsion ta’lim texnologiyalari. O‘quv-metodik qo‘llanma. – T.: “Sano-standart”, 2015. – 208 b.
46. Nazarov M.M. Massovaya kommunikatsiya i obshhestvo. Vvedeniye v teoriyu i issledovaniya / M.M. Nazarov. — M.: Librokom, 2014. — 354 s.

IV. Elektron ta’lim resurslari

1. www.edu.uz.
2. www.aci.uz.
3. www.ictcouncil.gov.uz.
4. www.lib.bimm.uz
5. www.Ziyonet.Uz
6. www.sciencedirect.com
7. www.acs.org
8. www.nature.com
9. <http://www.kornienko-ev.ru/BCYD/index.html>.

II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA’LIM METODLARI

1. “Keys-stadi” metodi «Keys-stadi» - inglizcha so‘z bo‘lib, («case» – aniq vaziyat, hodisa, «stadi» – o‘rganmoq, tahlil qilmoq) aniq vaziyatlarni o‘rganish, tahlil qilish asosida o‘qitishni amalga oshirishga qaratilgan metod hisoblanadi. Mazkur metod dastlab 1921 yil Garvard universitetida amaliy vaziyatlardan iqtisodiy boshqaruv fanlarini o‘rganishda foydalanish tartibida qo‘llanilgan. Keysda ochiq axborotlardan yoki aniq voqeа-hodisadan vaziyat sifatida tahlil uchun foydalanish mumkin. Keys harakatlari o‘z ichiga quyidagilarni qamrab oladi: Kim (Who), Qachon (When), Qaerda (Where), Nima uchun (Why), Qanday/ Qanaqa (How), Nima-natija (What).

“Keys metodi” ni amalga oshirish bosqichlari

Ish bosqichlari	Faoliyat shakli va mazmuni
1-bosqich: Keys va uning axborot ta’mnoti bilan tanishtirish	(yakka tartibdagi audio-vizual ish; (keys bilan tanishish(matnli, audio yoki media shaklda); (axborotni umumlashtirish; (axborot tahlili; (muammolarni aniqlash
2-bosqich: Keysni aniqlashtirish va o‘quv topshirig‘ni belgilash	(individual va guruhda ishlash; (muammolarni dolzarblik iyelerxiyasini aniqlash; (asosiy muammoli vaziyatni belgilash
3-bosqich: Keysdagi asosiy muammoni tahlil etish orqali o‘quv topshirig‘ining yechimini izlash, hal etish yo‘llarini ishlab chiqish	(individual va guruhda ishlash; (muqobil yechim yo‘llarini ishlab chiqish; (har bir yechimning imkoniyatlari va to‘siqlarni tahlil qilish; (muqobil yechimlarni tanlash
4-bosqich: Keys yechimini yechimini shakllantirish va asoslash, taqdimot.	(yakka va guruhda ishlash; (muqobil variantlarni amalda qo‘llash imkoniyatlarini asoslash; (ijodiy-loyiha taqdimotini tayyorlash; (yakuniy xulosa va vaziyat yechimining amaliy aspektlarini yoritish

Keys: Muammo sifatida turli xil jamiyatdagi madanit na’munalari olinadi. Bu turli jadvallar orqali solishtirma materiallar tayyorlanadi. Madaniyatning davriy o‘zgarishi tendenziyalari aniqlanadi. Buning sabablarining umumiylara taraflari o‘rganiladi

Keysni bajarish bosqichlari va topshiriqlar:

- Keysdagi muammoni keltirib chiqargan asosiy sabablarni belgilang (individual va kichik guruhda).
- Dasturni to‘g‘ri ishlashi uchun bajariladigan ishlar ketma-ketligini belgilang (juftliklardagi ish)

2. “Assesment” usuli

Usulning maqsadi: mazkur usul ta’lim oluvchilarining bilim darajasini baholash, nazorat qilish, o‘zlashtirish ko‘rsatkichi va amaliy ko‘nikmalarini tekshirishga yo‘naltirilgan. Mazkur texnika orqali ta’lim oluvchilarining bilish faoliyati turli yo‘nalishlar (test, amaliy ko‘nikmalar, muammoli vaziyatlar mashqi, qiyosiy tahlil, simptomlarni aniqlash) bo‘yicha tashhis qilinadi va baholanadi. Usulni amalga oshirish tartibi:

“Assesment”lardan ma’ruza mashg‘ulotlarida talabalarning yoki qatnashchilarining mavjud bilim darajasini o‘rganishda, yangi ma’lumotlarni bayon qilishda, seminar, amaliy

mashg‘ulotlarda esa mavzu yoki ma’lumotlarni o‘zlashtirish darajasini baholash, shuningdek, o‘zini baholash maqsadida individual shaklda foydalanish tavsija etiladi. Shuningdek, o‘qituvchining ijodiy yondashuvi hamda o‘quv maqsadlaridan kelib chiqib, assesmentga qo‘sishma topshiriqlarni kiritish mumkin.

Na’muna. Har bir katakdagi to‘g‘ri javob 5 ball yoki 1-5 balgacha baholanishi mumkin.

3. “Tushunchalar tahlili” usuli:

Usulning maqsadi: mazkur usul talabalar yoki qatnashchilarni mavzu buyicha tayanch tushunchalarni o‘zlashtirish darajasini aniqlash, o‘z bilimlarini mustaqil ravishda tekshirish, baholash, shuningdek, yangi mavzu bo‘yicha dastlabki bilimlar darajasini tashhis qilish maqsadida qo‘llaniladi. Usulni amalga oshirish tartibi:

- ishtirokchilar mashg‘ulot qoidalari bilan tanishtiriladi;
- o‘quvchilarga mavzuga yoki bobga tegishli bo‘lgan so‘zlar, tushunchalar nomi tushirilgan tarqatmalar beriladi (individual yoki guruhli tartibda);
- o‘quvchilar mazkur tushunchalar qanday ma’no anglatishi, qachon, qanday holatlarda qo‘llanilishi haqida yozma ma’lumot beradilar;
- belgilangan vaqt yakuniga etgach o‘qituvchi berilgan tushunchalarning to‘g‘ri va to‘liq izohini o‘qib eshittiradi yoki slayd orqali namoyish etadi;
- har bir ishtirokchi berilgan tugri javoblar bilan uzining shaxsiy munosabatini taqqoslaydi, farqlarini aniqlaydi va o‘z bilim darajasini tekshirib, baholaydi.

Na’muna: “Ma’ruzadagi tayanch tushunchalar tahlili”

Tushunchalar	Sizningcha bu tushuncha qanday ma’noni anglatadi?	Qo’shimcha ma’lumot
<i>Madaniy burilish</i>	<i>Kundalik hayotdagи madaniyatni mazmuni borasidagiturli hil yodashuvlari tushunish va izohlash uchun ishlatalidigan tushuncha</i>	
<i>Madaniy nisbiylik</i>	<i>Har bir jamiyatning madaniyatni umumiylar sharoitdan kelib chiqib erishilgan deb tushunuvchi va madaniyat shakllari boshqa madaniyat shakllari bilan o‘lchanmaslik haqidagi tushuncha</i>	
<i>Madaniy universalizm</i>	<i>Me’yorlari, o‘lchamlari bilan madaniyatni jamiyatni barcha qatlamlarida birdek amal qilishi haqidagi tushuncha</i>	
<i>Madaniy talvasa</i>	<i>Insonda o‘zi birinchi marta o‘zi uchun tanish bo‘limgan madaniyat elementlari bilan duch kelaganda yuzaga chiqadigan ijtimoiy-ruhiy beqarorlik</i>	
<i>Ommalashuv</i>	<i>Oldin yuz bergen kichik hodisalar orqali voqealikning yanada kengayishi va ommalashishi haqida tushuncha</i>	
<i>Ahloqiy vahima</i>	<i>Ma’lum bir guruhi va jamoatchilik muammo yuzasidan jamoachilikning havotirining oshib borishi odatda bu ijtimoiy nazaorat tarbini kuchaytishish uchun qo‘llaniladi.</i>	
<i>Monogamiya</i>	<i>erkak va ayol o‘rtasida juftlikka asoslangan nikoh turi</i>	
<i>Islohotlar</i>	<i>O‘zgarish, qayta qurish ma’nolarini anglatadi</i>	

B.B.B. texnikasi

B.B.B. jadvali:
Bilaman, Bilishni
hohlayman, Bildim.

- matn (mavzu, bo‘lim) bo‘yicha tadqiqot ishlari olib borish imkonini beradi;
- tizimli mulohaza qilish, tarkibga ajratish ko‘nikmalarin rivojlantiradi.

B.B.B jadvalini tuzish qoidalari bilan tanishtiradi.
Yakka tartibda (juftlikda) jadval rasmiylashtiriladi.

Qo‘yidagi savolga javob beriladi: Ushbu mavzu bo‘yicha siz nimani bilasiz?” va “Nimani bilishni hohlaysiz?” (Kelgusi ish uchun tahminiy asos

Yakka tartibda (juftlikda) jadvalning 1 chi va 2 chi ustuni to‘ldiriladi.

Mustaqil ravishda ma’ruza matnni o‘qiydi (ma’ruzani eshitadi)

Jadvalning 3-ustunini mustaqil (juftlikda) to‘ldiradi.

B texnikasining qoidasi

1. “Insert” texnikasidan foydalanilgan holda matnni o‘qib chiqing.
2. Olingan ma’lumotlarni individual sohalarga ajrating. Qalam bilan qo‘yilgan belgilarni asosida BBB jadvalini to‘ldiring.

“Insert” texnikasining qoidasi:

1. Matnni o‘qib chiqing.
2. Olingan ma’lumotlarni diqqat bilan o‘rganib, sohalarga ajrating. Qalam bilan har bir qatorga quyidagi belgilarni qo‘yib chiqing:
 - V – bilaman;
 - + – yangi ma’lumot;
 - – bilganlarimga zid;
 - ? – meni o‘ylantirmoqda.

BBB jadvali

<i>Nº</i>	<i>Mavzu savollari</i>	<i>Bilaman</i>	<i>Bilishni istayman</i>	<i>Bilib oldim</i>
1	2	3	4	5
1.	Sotsiolgik tadqiqotlarning ahamiyati			
2.	Fokus-guruh tadqiqotlar			
3.	Ma'lumotlarni tahlil qilish: <i>asosiy tushunchalar:</i>			
4.	Sotsiologik tadqiqot gipotezasi			
5.	Intervyu, kuzatish, hujjatlarni tahlil qilish sifatli tadqiqot usuli sifatida			
6	Sifatli tadqiqotlarda gaydlar			

III. NAZARIY MA'LUMOTLAR

1-MAVZU: Miqdoriy va sifatiy sotsiologik tadqiqotlarning amaliy va empirik jihatlari (4-SOAT)

Reja:

1. Miqdoriy va sifatiy tadqiqotlarning qiyosiy xarakteristikalari
2. Sotsiologik tadqiqotlarda sifatli tadqiqotlarning asosiy belgilari
3. Ma'lumotlarni tahlil qilish

Tayanch iboralar:

Chuqurlashtirilgan va keng miqyosdagi tadqiqotlar, sotsiologik tadqiqotlarning predmeti, Sifatiy tadqiqotlar, so'rov, anketa so'rovi, intervyu, fokus guruh tadqiqotlari

1.1. Sotsiologik tadqiqotlar – bu mantiqiy davomiylikka asoslangan metodologik , metodik va tashkiliy-texnik tadbirlar tizimi hisoblanib, ular o‘zaro uyg‘unlashgan holda ijtimoy jarayonlarni o‘rganish bo‘yicha ob’ektiv-haqiqiy ma'lumotlarga ega bo‘lish va amaliyotda qo‘llash maqsadlaridan iborat.

1. Sotsiologik tadqiqot o‘tkazishning turlari.

Belgilangan maqsadlar va ilgari surilgan vazifalardan kelib chiqqan holda sotsiologik tadqiqotlarning uchta asosiy turi mavjud:

- Dastlabki ma'lumotlar oluvchi, pilotaj, va muammoni hal etuvchi tadqiqotlar;
- tavsiflovchi ;
- tahliliy.

Dastlabki ma'lumotlar olish tadqiqoti sotsiologik tadqiqotlarning eng sodda turi hisoblanib, uncha katta bo‘lmagan miqyosdagi tadqiqot vazifalarini bajaradi. U soddalashtirilgan dastur, metodika va hajm jihatdan qisqartirilgan instrumentariy bilan farq qiladi.

sotsiologik tadqiqotlarning ushbu turi quydagи maqsadlarda qo‘llaniladi:

- chuqurlashtirilgan va keng miqyosdagi tadqiqotlarning dastlabki bosqichida metodik instrumentariy va uning korreksiyasini tekshirish;
- tadqiq etilayotgan ob’ekt haqida “tahminiy” ma'lumotlarni to‘plash uchun;
- sotsiologik tadqiqotlarning predmeti kam o‘rganilgan yoki umuman o‘rganilmagan holatda, shu bilan birga, tadqiqot ob’ekti va predmeti haqida

qo'shimcha ma'lumotlarga ega bo'lish, tadqiqotlar metodik instrumentariyasi, hamda tadqiqotning ayrim vazifalari va farazlarini aniqlashtirish uchun.

Dastlabki ma'lumotlarni to'plash usullari hisoblanadigan ekspress-so'rov, intervyu yoki anketa so'rovnoma masasi, "fokus-guruuhlar" uslubidagi intervyular ushbu tadqiqotning ko'rinishlari hisoblanadi. Qoidaga qo'ra, ushbu tadqiqotlar ma'lum bir fakt, voqeа, hodisa haqida qisqa fursatlarda tezkor ma'lumot to'plash maqsadida o'tkaziladi

Tavsiflovchi tadqiqot – bu chuqur sotsiologik tahlil qilish demakdir. Buning uchun tadqiqotning ob'ekti sifatida bir hil tavsiflarga ega bo'lмаган insonlarning katta guruhi tanlab olinadiki, bu o'z navbatida qiyoslash va taqqoslash uchun imkon yaratadi. Tavsiflovchi turdagи tadqiqotni o'tkazish o'r ganilayotgan ob'ektning muhim elementlarini o'r ganish jarayonida ishonchlilik darajasini ta'minlaydigan, sinovdan o'tgan metodik instrumentariya foydalanuvchi murakkabroq va mukammal dastur ishlab chiqishni talab etadi. Tadqiqot dasturing murakkabligi va keng miqyosdaligi sababli, uning natijalarini qayta ishslashda EHMDan foydalaniladi.

Tahliliy tadqiqot – bu sotsiologik tahlilning eng muhim va chuqurlashgan shakli hisoblanadi. Bu tadqiqotning maqsadi nafaqat o'r ganilayotgan hodisaning strukturaviy elementlarini tasvirlash, balki, mazkur hodisaning asosini tashkil qiluvchi tarqaganlik, o'zgaruvchanlik va barqarorlik yoki beqarorlikning sababiy aloqalarini aniqlashdan iborat. Mazkur tadqiqot ham ma'lumot to'plash usullari bo'yicha, ham boshqa ko'rsatkichlar bo'yicha ham kompleks xarakterga ega. U shahar, viloyat va respublika doirasida o'tkaziladigan tadqiqotlarda, katta hududini qamrab oladi. Tahliliy tadqiqot davomida bir-birini to'ldiruvchi sotsiologik metodlardan hususan so'rovnomaning turli shakllari, hujjatlar tahlili, kuzatuv kabi usullar umumiy tarzda qo'llaniladi.

Tadqiqotning bu shaklida eksperiment metodidan ham foydalanish mumkin. Bunda sotsiolog sababiy aloqalar va omillarni chuqurroq aniqlashga ko'mak beruvchi ma'lum bir vaziyatlarni hosil qiladi. Bunday tadqiqotni eksperimental, yoki sotsial eksperiment deb atash ham mumkin.

1.3. Sotsiologik tadqiqotlardagi ma'lumot to'plash metodlarining barchasini ikki katta guruhgа ajratish mumkin: miqdoriy va sifatiy (sifatga oid).

Miqdoriy tadqiqotlar insonlarning miqdor jihatdan o'lhash mumkin bo'lgan xulq-atvori xususiyatlarini ob'ektiv o'r ganish va ko'p hollarda u, yoki bu dolzarb masalalar bo'yicha jamoatchilik fikrini tasvirlash maqsadi uchun mo'ljallangan tadqiqotlar hisoblanadi.

Sifatiy tadqiqotlar ma'lumotlarni to'larоq olishga, tadqiqot predmetiga jamoatchilik fikri bergen bahoni tushunish va sharhlarni oshirishga mo'ljallangan. Sifatiy tadqiqot insonlarning xulq-atvor, ustakovkalar motivlari haqida ma'lumot olishga, ya'ni, "Nima uchun?" degan savolga javob berishga imkon beradi

Aslini olib aytganda, sfatiy tadqiqot ko‘proq kashf qilish (ochish) jarayoni, miqdoriy tadqiqot esa mavjud gipotezalarni tasdiqlash va isbotlash jarayonidir.

Miqdoriy va sifatiyyiy tadqiqotlarning qiyosiy xarakteristikalari. Asosiy tushunchalar: miqdoriy va sifatiy tadqiqotlarga bo‘lgan yondashuvlarning triangulyasiysi. Zamonaviy sotsiologik fanlarda sifatiy tadqiqotlar o‘tkazish amaliyoti XX asrning 70 yillaridan boshlandi. Sotsiolog tadqiqotchilarining yuqori darajada sifatiy tadqiqotlarga bo‘lgan qiziqishining ortishi ilmiy doiralarda sifatiy metodologiyani bilish imkoniyatlari va qo‘llanilish sohalari to‘g‘risidagi munozaralardan boshlandi. Ayniqsa bu o‘tgan asrning 90 yillarida jiddiy tus oldi. Ma’lumki sotsiologiyada ijtimoiy tadqiqot turlari ikki xil, ya’ni a) miqdoriy va b) sifatiy turlarga ajratiladi. Miqdoriy tadqiqotlarda alohida mashg‘ulotlar ko‘pligi va u alohida ko‘rinishga egaligi, hamda ushbu dars predmetida unga vaqt ajratilmaganligi bois, uning tahliliga to‘xtalib o‘tmaymiz.

Sifatiy tadqiqotlarda ijtimoiy hodisa/hodisalarni chuqurroq tushunishga intilish mutaxassislardan chuqur nazariy-metodologik bilimlarni talab etadi. Avvaldan ishlab chiqilgan qat’iy ilmiy gipotezalarning yetishmasligi, vakillik namunasi, miqdoriy yo‘naltirilgan ma’lumotlardagi o‘zgaruvchanlik sababli ham, ushbu usulga jiddiy e’tibor qaratildi. Ko‘pincha tadqiqotchilar o‘rtasida miqdoriy va sifatiy usullarni taqqoslash, ilmiy munozaralarga kirishish bahsli yakun topgan. Unda qaysi usulning imkoniyatlari, chekllovleri, nisbatlari muhimroq, degan savol o‘rtaga tashlanardi. Miqdoriy usullar asosan jamiyatning ehtimollik va statistik tushunchalariga tayanishi bilan ajralib turardi. Shu bois, u sotsiologiyada «an’anaviy» deb nom olgan. Undan tashqari miqdoriy tadqiqotlar «qattiq», «keskin» tadqiqotlar deb atalib, mutaxassislar uni «makro-» tadqiqotlar toifasiga ajratadilar.

Sotsiumda mavjud ijtimoiy tizimdagи tebranishlarning tahlili hamma vaqt ham miqdoriyda o‘z aksini topolmasligi natijasida, sifatiy sotsiologik tadqiqotlarga e’tibor oshdi. Fanda sifatiy tadqiqotlar «yumshoq», «moyil» kabi nisbat bilan ajratib, adabiyotlarda «mikro-» tadqiqotlar sifatida e’tirof qilinadi. Agar miqdoriy tadqiqotlar muammolari mavjud tadqiqot instrumentariysining o‘rganilayotgan ob‘ektga nisbatan faol ta’siri orqali amalga oshirilsa, hamda olingan natijalar va ma’lumotlarni izohlash ma’lum mavzudagi noaniq rolini sxemalashtirish yoki soddalashtirishga, tadqiqot natijalarini tanlangan usullar yordamida «tashqari»dan «nusxa» (diagramma, jadval va shu kabilar) lashtirishga qaratilgan bo‘lsa, sifatiy tadqiqotlar «ichki» muhit yoki ruhiyat ichiga joylashib, muammo (jarayon, hodisa, inson kayfiyati)ni hikoyanavislik yordamida ko‘rsatib beradi.

Miqdoriy tadqiqotlarning ishonchlilik darjasи har bir amalga oshirilgan tadqiqotning ma’lum bir qismini takrorlash va bir xil natijaga erishish qobiliyati (naqshinkorlik mavjudligini isbotlash) bilan ifodalanadi. Sifatiy sotsiologik

tadqiqotlarning asosiy vazifasi esa kundalik hayot (hayot olami) atributlari va u bilan bog‘liq ijtimoiy ong holatlarini tahlil qilish va tavsiflashdan iborat bo‘ladi.

Sotsiumda ijtimoiy tuzilishga oid qarama-qarshi fikrlarning yuzaga kelishi, lekin uni raqamlarda ifoda etishning imkoniy yo‘qligi bois sifatiy tadqiqotlarning nazariy-metodologik konsepsiyalari paydo bo‘ldi. Jumladan, «antropotsentrik» yondashuvga ko‘ra insonlar hayotidagi kundalik, maishiy muammolarni tahlil qilish, kishilarning o‘z xatti harakatlari beradigan baholardagi ma’nolarni tan olish istagi shular jumlasidan hisoblanadi. Bunda ijtimoiy hodisalarining mikrotahlilga o‘tishi kuzatiladi.

Ijtimoiy hodisalarini mikrotahlilga o‘tishi. Sifatiy tadqiqotlarda olingan ma’lumotlarning to‘g‘riliqi – bu o‘rganilayotgan hodisaning aniq va ravshan tasvirini inson qalbi orqali ifodalashga qaratilganligidir. Sifatiy sotsiologik tadqiqotlarni tanqid qilish (tadqiqot mavzusining ahamiyatsizligi, tanlangan uslublarning alohida tavsiflanganligi, cheklangan empirik qo‘llanilishlar) tez-tez uchrab turadi va uning natijalari sub’ektiv mazmun kasb etganligi bilan «ilmiylikdan uzoq», deb baholovchilar ham bor. Sifatiy tadqiqotlardan foydalanilganda, baribir miqdoriy va sifatiy tadqiqotlar o‘rtasidagi «ta’sir doira»larni ajratib olish lozim. Bunda tadqiqot ob’ekti, unga mos uslubni tanlab olish va foydalanadigan jihoz (avvallari - diktafon, kinokamera, fotoapparat orqali tasvirga olish va shu kabilardan foydalanilgan)ning ham sifat darajasi yuqori bo‘lishi kerak.

Fokus-guruh tadqiqotlar: *Fokus-guruhnинг асосиј таркиби қисмлари: chuqurlashtirilgan intervyyu, ekspert baholash, biografik usul, kontent-tahlil.* **Asosiy tushunchalar:** fokus-guruhrilar, chuqurlashtirilgan intervyyu, moderator, suhbatdosh, ochiq va yopiq savollar, «nega?», «nima uchun?», «qachon?», «qaerda?», «kim bilan?» degan savollar majmuasi.

Sifatli tadqiqotlarning asosiy tarkibiy qismlari fokus-guruh, ekspert baholash, biografik usul va chuqurlashtirilgan intervyular yordamida amalga oshiriladi. Dastlabki amallar - moderator (intervyu olib boruvchi), ssenariy (tadqiqot rejisi), tahlil guruhi: rahbar, uning yordamchisi, respondentlar va intervyyu shartlaridan tashkil topadi. Fokus-guruh/chuqurlashtirilgan intervyyu usullari yordamida sifatiy tadqiqotlarni o‘tkazish uchun asosiy natijalar «nima uchun?» degan savol atrofiga quriladi. Javob olish holatlari oddiydan murakkabga qarab shakllanib boradi. Savollarni aniq shakllantirish «gayd»lar deb ataladi va uning ahamiyati shundaki, bevosita vaziyat va muhitdan kelib chiqib, savollar ehtiyyotkorlik bilan tadqiqot jarayonining o‘zida «takomillashtirilib» boriladi yoki «yumshatiladi».

Suhbat olib boruvchi/moderatorga qo‘yiladigan talablar: «betaraflik», «izchillik», «og‘zaki bo‘lmagan xatti-harakatlarni kuzatish», «so‘rov davomida kuzatuvlar»dan foydalanish.

Tinglash qobiliyatlari: «yuqori sezgirlik», «sezgi ifodasi», «diqqat», «hamdardlik», «respondentning fikrini bildirish usulini hisobga olish»i zarur.

Moderatorning «faol tinglash» va «sukutli vaziyat» bilan bog'liq xatti-harakatlarni boshqarishdagi roli: «nigoh orqali munosabat», «qunt bilan eshitish», «imo-ishoralar», «nutqning ma'nosi»ga e'tibor qilish. Tadqiqotga ijodiy jarayon sifatida qarash moderatorning asosiy vazifalaridan biri hisoblanib, u miqdoriy tadqiqotlar boshqaruvchisi «intervyuer»dan shu kabi jihatlari bilan ajralib turadi. Moderator ishtirokchi (respondent)larning «kutilmagan vaziyat»larini hisobga olish, «improvizatsiya» qilish, belgilangan tadqiqot vazifalarini jarayonga moslashtirish va amalga oshirish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak.

Chuqurlashtirilgan suhbatning bosqichlari: Asosiy tushunchalar: «sifatiy intervyyu bosqichlari», «iliq munosabat», «asosiy qism», «yakunlash», «so'rov», «guruh ichidagi holat dinamikasi», «og'zaki bo'limgan xatti-harakatlar», «intervyyu texnikasi».

Fokus-guruhning asosiy bosqichlari: chuqurlashtirilgan intervyyu, ularning umumiy xususiyatlariga qaratiladi. Suhbatga kirishish funksiyalari: «stressli holatlarni yo'qotish», «suhbat qoidalariga rioya qilish va qoidalarni belgilash», «birlamchi aloqalarni o'rnatish».

Chuqurlashtirilgan intervyyu o'tkazishning standartlashtirilgan talablari: «iliq muhit yaratish» va intervyyuning ilk vazifalarini belgilab olish. Bunda, birlamchi savollarning funksional ahamiyatiga e'tibor berish.

Iliqlik muhitini yaratish bosqichida ishlataladigan savollar turlari: moderator o'z vazifasiga xolislik bilan qarab, tenglik asosida respondentda hurmat va qiziqishni namoyish etishi muhim. Suhbatning asosiy qismi bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Bunda, respondentlardagi «shaxsiy munosabat», «qadriyatlar», «hissiyotlar», «reaksiyalar» va ularni «kuzatish» bilimlariga ko'nikmani shakllantirib borishi zarur. Birinchi bosqichda umumiy mazmundagi savollar uchun vaqt ajratiladi. Asta-sekinlik bilan umumiy savollardan aniq, belgilangan, chuqurlashtirilgan savollarga o'tib boriladi.

Birinchi bosqichda ishlashning asosiy muammolari: moderator «muhim» va «ikkilamchi» savollarning rolini o'zi uchun belgilab olishi zarur. Umumiyligi savollardan olingan ma'lumotlardan tadqiqot jarayonida muhim savollarni shakllantirish va foydalanish ko'nikmasiga ega bo'lish. «intervyyu so'rov»lari texnikasi (mimikalardan foydalanish, pauzalar, motivatsion savollar, kalit so'zlarni tekshirish, kamroq savol berib, hissiyotlarga murojaat qilish va hk).

Ikkinchi bosqichda ishlashning asosiy muammolari: Guruh ichidagi munozara. Uni shakllantirish va faoliyatni davom ettirish usullari. Qarama-qarshi nuqtai nazarlarning bayonlari ma'nosi. Bilvosita/bevosita savollar orqali asosiy ma'lumotlarni olish. Qo'shimcha moderatsiya texnikasi (to'g'ridan-to'g'ri shubhalar, provokatsiyali holatlar, qarama-qarshi ma'lumotlarga konsentratsiya va

boshqalar). Suhbatni yakunlash. Suhbatni yakuniga yetkazish bosqichida qo'llaniladigan savollar (kelajakka oid savollar, munozara paytida sodir bo'lgan voqealarni sarhisob qilish, o'z pozitsiyasi, tadqiqotni takomillashtirish / takomillashtirish istaklari). Uchrashuvni yakunlash, minnatdorchilik, xayrlashuv so'zлari. Muhokama ishtirokchilari orasida «katarsis»ning ta'siri (jonlanish, ko'tarinki kayfiyat, yoqimli taassurotlar almashinuvi) intervyyu muvaffaqiyati ko'rsatkichi sifatida.

Fokus guruhi moderatori/chuqurlashtirilgan intervyyu tashkilotchisi:

Asosiy tushunchalar: «moderator», «ko'nikma va texnikalar», «murakkab respondentlar», «murakkab vaziyatlarni zararsizlantirish», «axloqiy jihatlar».

Ma'ruza suhbatdoshi: «funksiyalari», «shaxsiy xususiyatlari», «o'zini tutish qoidalari».

Moderatorning ish uslubi: - «fokus guruh moderatori», «chuqurlashtirilgan intervyyu beruvchi».

Tajriba va mashg'ulotning qiymati. «Ishonchlilik», «sabr-toqat», «suhbatdosha e'tibor», «nutqning qulayligi», «og'zaki bo'limgan reaksiyalarni tushunish», «diqqatni jamlash qobiliyati».

Muhokama qilish texnikasi: «asosiy va qo'shimcha» bo'lgan ko'nikma va usullar.

Asosiy mavzularga o'tish. Proeksion metodlarni qo'llash (assotsiatsiyalar, konseptual namoyishlar, tugallanmagan jumlalar, rolli o'yinlar, ideal vakillik va boshqalar).

«Murakkab» respondentlarning turlari (dominant, qo'rkoq, ekspert, yolg'on ekspert, ehtiyotkor va boshqalar) va ularni zararsizlantirish usullari. Og'zaki bo'limgan javoblarni kuzatish va ularni suhbat jarayoniga kiritish. Guruh ishi va vaqtini nazorat qilish.

Moderatorlarning odatdagи xatolari (o'z pozitsiyasining ta'siri, o'z poziziyyasini berib qo'yish, betaraflikka rioya qilmaslik, selektivlik, kontekstni bilmaslik, aybsizlik va h.k). Moderator/ chuqurlashtirilgan intervyyu tashkil etuvchi ishining axloqiy jihatlari.

Sifatiy tadqiqotlar uchun ssenariy/qo'llanma. Asosiy tushunchalar:

«ssenariy», «kontekst», «mavzular va ssenariy» savollari. Umumiy jihatlardan o'ziga xos tomonga o'tish. Muammoning ta'rifi, vazifalari, tadqiqot savollari.

«Mavzu» - suhbatning tarkibiy bo'limi sifatida. «Kontekst»ni ko'rib chiqish.

Savollarning ketma-ketligi va munozara bosqichlari. Chekka hudud usuli: imkoniyatlar va cheklolar. Oldindan rejorashtirilgan savollar va suhbat davomida berilgan savollar. Suhbatdagi mavzular soni. Ssenariyda mantiqiy tafsilotlar darajasi.

Mavzularga bo'lish: asoslilik, mutanosiblik, o'zaro chiqarib tashlash, uzlucksizlik. Yuqori va past tafsilotlar ssenariysi: ijobiy va salbiy tomonlari.

Savollarning ketma-ketligiga qo'yiladigan talablar: respondentlarning qiziqishi ortishi, murakkabligi oshishi, chuqurlashishi. Maxsus ketma-ketliklar. Tematik ketma-ketlik - parallel mavzularga ajratish va bir-biriga yaqinlashish.

«Muammoni hal qilish» ketma-ketligi: muammoning mohiyati, uning sababi, mumkin bo'lgan yechimlari, «Gellap yo'li»ni amalga oshirish imkoniyatlari: muammodan xabardorlik, unga munosabat, muammoning o'ziga xos tomonlari, ushbu

baholarning sabablari, ularning intensivligi darajasi. Suhbat tili. Xabarlarning ma’nosini eng to‘liq va aniq yetkazish zarurati. Boshqa tadqiqot ish hujjatlari (skrining anketasi, guruh a’zolari uchun).

Tadqiqotni tashkil etish. Asosiy tushunchalar: «bir xillik», «respondentlarning tarkibi va soni», «makonni tashkil qilish», «ishga qabul qilish», «skrining». *Fokus-guruuhlar usuli bo‘yicha tadqiqotlarni tashkil etish:* «kerakli guruuhlar soni», «tarkibi va ishtirokchilar soni». *Ishtirokchilarning bir xil tarkibi.* «Jins», «yosh», «millat», «ma’lumot darajasi», «daromad darajasi» omillari. *Tadqiqotda ishtirok etish uchun cheklovlar:* «bir-birlari bilan tanishish», «moderator», «intervyu beruvchilar», «sotsiologlar», «psixologlar», «professional marketologlar», «reklama beruvchilar», «mavzu bo‘yicha mutaxassislar» bilan. *Suhbat davomiyligi:* «joy», «makonni tashkil etish». *Maxsus xona va maxsus jihozlar.* Texnik yozuv. *Suhbat o‘tkaziladigan joyga qo‘yiladigan talablar:* «aralashmaslik», «tiniq va ravon eshitilishni ta’minalash», «ishtirokchilar uchun qulaylik», «neytral joylashish», «suhbatning barcha ishtirokchilari uchun maqbulligi», «kuzatuvchilar uchun yaxshi ko‘rinishini ta’minalash». Moderator: Men nimadan qochishim kerak? Mumkin bo‘lgan salbiy omillar. Ishtirokchilarning o‘tirishi. Respondentlarning tarkibi va sonini belgilovchi omillar. Logistika ishlari (yollash, qatnashish). Muhokama ishtirokchilarini tanlash mezonlarini tanlash. Respondentlarni yollash (skrining anketasi, namuna). Ishga qabul qilish usullari. Eng yaxshi javob beruvchi kim? Binolarni tayyorlash, video-audio yozuvlarni taqdim etish. O‘zingiz bilan nimani va qancha miqdorda olib yurishingiz kerak? Ovqatlanish. Respondentlarning to‘lovlari, umumiy ko‘rsatmalar.

Tadqiqotchilarning yordamchilari. Asosiy tushunchalar: «tahlilchi yordamchisi», «protokol», «stenogramma», video-, audio- stenogramma, yozuvlar, kuzatuvchilar, xulosa qilish. *Ma’ruza tahlilchisi yordamchisi:* roli va asosiy vazifalari. Yordamchi tahlilchi malakasi va malakasiga qo‘yiladigan talablar. Muhim shart: - tadqiqot maqsadlari va ssenariyni yaxshi bilish. Yordamchi va moderatorning almashinushi, o‘zgaruvchan ishdan olinadigan foyda. Fokus-guruuhda ishlashga tayyorgarlik. Yozuvlarni yuritish (ko‘nikmalar va texnikalar). Suhbat davomida o‘zini tutish qoidalari. Moderator bilan o‘zaro hamkorlik: «maslahatlar». Suhbatlarda qatnashish imkoniyati. Yozuvlarni yuritish bo‘yicha amaliy tavsiyalar (qisqartmalar, raqamlash, qisqartmalar, ro‘yxatdan o‘tish shakllari, jadvallar va boshqalar). Og‘zaki bo‘lmagan reaksiyalarni fiksatsiya qilish. Texnik funksiyalar: jihozlarning imkoniyati va ishlashini kuzatish. Video- va audio- yozuvlar. Audio- va video- kassetalarni markalash. Qo‘l va texnik yozuvlar - qo‘sishimcha, ro‘yxatdan o‘tish kafolati. Fokus guruhi kuzatuvchilarini va chuqur intervbyular. Xulq-atvor qoidalari. Kuzatuvchilar bilan aloqa tamoyillari. So‘rov oxirida moderator bilan tadqiqotning asosiy natijalarini muhokama qilish - xulosa qilish. Post

intervyu/fokus-guruh yozuvi. Transkript/transkript tayyorlash. Stenogramma tayyorlash uchun asosiy talablar va tavsiyalar.

Ma'lumotlarni tahlil qilish: Asosiy *tushunchalar*: «tasniflash», «saralash», «indeksni tuzish», «markalash», «ma'lumotlarni ixchamlashtirish», «tipologiya». *Sifatiy tahlil an'analari*: «etnografik yondashuv», «tarjimai hollarni tahlil qilish», «rivoyatlar», «dialoglar», «nazariyalarni asoslash» va boshqalar. *Tahlilga turli xil yondashuvlarning ustuvor maqsadlari*: «mazmunli tahlil qilish», «talqin qilishning asosiy jihatlari». Ma'lumotlarni tasniflash, saralash va qisqartirish. *Tahlil va tushuntirish ishlarini ilgari surish*: «topilmalar nimani anglatadi», «asosiy o'lchov nima?», «qanday «naqshinkor» g'oyalarni topish mumkin?», «qanday tushuntirishlar taklif etiladi?»

Tahliliy ierarxiya. Dastlabki ma'lumotlar. Dastlabki mavzular/tushunchalarni targ'ib qilish. Indeksni qurish. Ma'lumotlarni etiketlash va ularga mavzular hamda tushunchalarga muvofiq indekslarni berish. Maxsus dasturlardan foydalanish imkoniyatlari. WinMax, Atlas, Etnograf dasturlari. Ma'lumotlarni tushunchalar bo'yicha saralash. Ma'lumotlarning yig'indisi va sintezi. Tasnifi va tavsifi. O'lchovlarning ta'rifi. Naqshinkorlikni qidirib topish. Tipologiyalarni o'rnatish. Mahalliy tushuntirishlarni ilgari surish. Amaliy jihatlarni aniqlash.

Sifatiy tahlilga qo'yiladigan talablar: tahliliy mavzular va toifalarni targ'ib qilishga imkon beradigan ma'lumotlarga asoslanib, tizimli va to'liq tahlil, o'zaro bog'liqlik va ma'lumotlar almashinuvini qo'llab-quvvatlash, tematik va hodisalarini tahlil qilishni qo'llab-quvvatlash, boshqalar uchun ochiqlik va ochiqlik. Fokus-guruuhlar, chuqurlashtirilgan intervylular ma'lumotlarini tahlil qilishda nima qilish kerak va nimadan qochish kerak? Eng keng tarqalgan xatolar.

Nazorat savollari:

1. *Sotsiologik tadqiqot o'tkazishning turlari sanab bering?*
2. *Sotsiologik tadqiqot usullarining qisqacha xususiyatlari ta'riflab o'ting?*
3. *Miqdoriy tadqiqotlar usullarini sanab o'tirg?*
4. *Sifatiy tadqiqotlarga misollar keltiring?*

Adabiyotlar

1. Девятько И.Ф. Методы социологического исследования. Учебное пособие. Москва «Университет книжный дом», 2009.
2. Добреньков В.И. Кравченко А.И. Фундаментальная социология. 3-том. Методика и техника исследования. Москва.; ИНФРА-М. 2009
3. Горшков М. Шереги Ф. Прикладная социология: методология и методы. Москва.; 2011.
4. Ядов В.А. Стратегия социологического исследования: описание, объяснение, понимание социальной реальности: Учебник для студентов вузов. М.: Добросвет, 2008..
5. Earl Bable. The practice of social research. 2010. Wadsworth. CECGAGE Learning. USA.
6. Loraine Blaxter, Christina Hughes, Malcoln Tight. How to research. Fourth edition. Open University Press, 2010. England, UK.

2-MAVZU: Tadqiqotlar o‘tkazish metodologiyasi, texnikasi, protsedurasi va metodlarini aniqlash, farqlari va o‘xhash jihatlari (4-SOAT)

Reja:

1. Tadqiqot muammosining aniq ifoda etilishi
2. Sotsiologik tadqiqot dasturini tuzish
3. Dasturning metodik qismi
4. Tadqiqot instrumentariyasi

Tayanch iboralar:

Tadqiqot muammosining aniq ifoda etilishi, sotsiologik tadqiqot dasturini tuzish, dasturning metodologik qismi, dasturning metodik qismi, mexanik tanlov metodi, kvant tanlov metodi, tadqiqot instrumentariyasi, sotsiologik tadqiqotlarning predmeti, Sifatiy tadqiqotlar, so‘rov, anketa so‘rovi, intervyu , ekspert so‘rovi

Sotsiologik tadqiqotlarning asosiy usullari qatoriga quyidagilar kiradi:

1. So‘rov – odatda sotsiologik tadqiqot o‘tkazish bilan bog‘liq bo‘lgan sotsiologik tadqiqotning o‘ziga xos usuli. Ushbu usuldan mohirona foydalanish uchun nima haqida so‘rash, qanday so‘rash, qanday savollarni berish, va nihoyat olingan ma’lumotlarning to‘g‘ri ekanligiga ishonch hosil qilish kerak bo‘ladi. Ushbu empirik sotsiologik usul ko‘pchilik insonlardan cheklangan hajmdagi ma’lumotlarni yig‘ish bo‘yicha tengsiz bo‘lib ikki xil ko‘rinishda ishlatalishi mumkin:

Anketa so‘rovida, so‘rovnama ishtirokchisi anketa so‘rovnomasini anketa o‘tkazuvchi ishtirokida yoki o‘zi yakka holda ya’ni yuzma-yuz yoki masofaviy ravishda mustaqil to‘ldiradi. Masofaviy tarzda anketa so‘rovnomasini o‘tkazish borasida OAV so‘rovi(gazeta, jurnal, televideniya orkali), so‘nggi yillarda esa internet so‘rovi keng tarqalgan shakllari hisoblanadi. Anketa so‘rovining muhim ustun tamoni uning anonimlik tamoyiliga asoslanishi hisoblanadi. Anketa so‘rovining muhim yutug‘i uning anonimlik tamoyili hisoblanadi. Biroq bu ham respondentning (so‘rovnama qatnashchisining) javoblari to‘g‘ri ekanligini kafolatlamaydi, shu sababli tadqiqotchi to‘plangan ma’lumotlarni tahlil qilishda bu omilni doimo inobatga olishi zarur.

So‘rov quyidagicha turlanadi, *ochiq so‘rov* – respondentlar erkin usulda fikr bildiradilar. *Yopiq so‘rov varaqasida* barcha javob variantlari oldindan belgilangan bo‘ladi. *Yarim yopiq anketalarda* yuqoridagi ikki usulni ham qo‘llaniladi. *Zondaj, yoki ekspress so‘rov* jamoatchilik fikrini o‘rganishda qo‘llaniladi hamda 3-4 banddan iborat asosiy ma’lumot va unga qo‘srimcha so‘rovda ishtirok

etaryotganlarning demografik va ijtimoiy xususiyatlari bilan bog'liq bir nechta bandlardan iborat.

Ma'lum guruh ichida anketa so'rovi o'tkazish individual so'rovdan farq qiladi. Birinchi vaziyatda 30-40 nafar insonlardan bir vaqtning o'zida so'rov o'tkaziladi: anketa so'rovi o'tkazuvchi respondentlarni bir joyga to'plab, ularga ko'rsatma beradi va anketalarni ularga to'ldirishlari uchun qoldiradi, ikkinchi vaziyatda u har bir respondentga individual ravishda murojaat qiladi.

- **Intervyu o'tkazish**, sotsiologning olib borilayotgan tadqiqot doirasida respondent bilan suhbat o'tkazishi, unda tadqiqotchi savol beradi va berilgan javoblarni yozib boradi.

Intervyu usulining bir nechta ko'rinishlari mavjud: *to 'g'ridan-to 'g'ri* (sotsiolog respondent bilan bevosita suhbatlashadi); *bilvosita* (telefon orqali suhbat); *formallashtirilgan* (savolnoma avvaldan tayyorlanadi); *fokuslashtirilgan* (diqqat markaziga aniq hodisa qo'yiladi); *erkin intervyu* (oldindan belgilanmagan erkin suhbat).

So'rovning bu shakli ma'lum bir professional (kasbiy) tayyorgarlikni talab qiladi. Shuning uchun bu usulni qo'llashda respondentlar bilan intervyu o'tkazuvchilar uchun ko'rsatma berish (instruktajni tashkil etish zarur. Jonli suhbat esa, ijobjiy jihat hisoblanadi. Shuni ham hisobga olish zarurki intervyu o'tkazishda anketa so'roviga hos bo'lgan anonimlik, bo'lmasligi mumkin, bu esa biroz ob'ektiv bo'lmasligi javoblarni olinishiga olib kelishi mumkin. Amaliy sotsiologiyaning usullari tizimida so'rovlardan ***ommaviy va maxsus*** (*ekspert so'rovi shaklida*) ***so'rovlarga*** ajratiladi.

Ekspert so'rovi empirik darajadagi sotsiologik so'rov turi sifatida o'rganilayotgan soha mutaxassislari fikrlari asosida olingan ma'lumotlarni ishonchliligi va ob'ektivligi tekshirishga imkon beradi. Bu tadqiqotning ma'sulyatli tamonlaridan biri ekspertlarni tanlab olish hisoblanadi.

Mutaxassislar – bu o'rganilayotgan soha bilimdoni, ushbu sohada ko'p yillik tajribaga ega bo'lgan taniqli mutaxassis shaxslardir.

Mutaxassislar tanlashdagi eng keng tarqalgan usullar quyidagilardir: *hujjatli* (ijtimoiy-demografik ma'lumotlar o'rganish asosida); test asosida mutaxassislar tanlash, o'z-o'zlarini baholash asosida mutaxassislar tanlash va ularni boshqa odamlar tamonidan berilgan tavsiyasi asosida mutaxassislarni tanlash.

Ommaviy so'rovlardan ko'p sonli aholini so'roq qilish zarur bo'lgan holatlarda qo'llaniladi. Ommaviy so'rovlarda aholining demografik, ijtimoiy-kasbiy, etnik, diniy va boshqa guruhlari ma'lumot olishning asosiy manbasi hisoblanadi.

2. Kuzatish– bu sodir bo'layotgan voq'elik va hodisalarni vizual qayd etishdir. Kuzatish davomida tadqiqotchi tamonidan insonlarning xulq-atvorning ahamiyatga molik jihatlari blanka yoki kuzatuv kundaligi, foto va video tasmalarga muhrlanadi;

kuzatuv jarayoning barcha hilma-hilagini (eksperiment qatnashchilarining xulq-atvor, emotsiya, mimikasi) tahlilini o‘z ichiga olgan dastlabki ma’lumot yig‘iladi.

Kuzatuv turli xil: *notuzilmaviy* (kuzatuvning aniq rejasи bo‘lmay, aniqlangan vaziyatning faqat umumiy xususiyatlari mavjud bo‘lsa); *tuzilmaviy* (kuzatuv uchun aniq reja, ob’ekt haqida yetarli ma’lumotlar mavjud bo‘lsa); tizimli, tizimsiz bo‘lishi mumkin.

Kuzatuv tashkiliy jihatlariga ko‘ra *dala* (tabiiy sharoitlarda kuzatish) va *laboratoriya* (eksperimental vaziyatda) tadqiqotlariga bo‘linadi. Har qanday kuzatuvalar tartibi quyidagi savollarga javoblardan iborat bo‘ladi: «Nimani kuzatish zarur?», «Qanday qilib kuzatish zarur?» va «Qanday yozib qayd qilib olish kerak?». Kuzatuv kuzatilayotgan voq’elik yoki jarayonning o‘zgaruvchanligi haqida ma’lumot olish imkonini beradi.

Kuzatuv masadiga ko‘ra *ilmiy* va odatiy, shakliga ko‘ra *bevosita* va *bilvosita*, hususiyatiga ko‘ra *anglangan* va *anglanmagan* bo‘ladi. *Ilmiy kuzatuv* amaliyotda isbotlanuvchi kuzatuvdir. *Bevosita kuzatuv* – bu sotsial guruhni «ichidan» o‘rganish bo‘lib, bunda tadqiqotchi o‘rganilayotgan guruh bilan ishlaydi yoki birgalikda yashaydi. Har ikki holatda ham, kuzatuv anglangan yoki anglanmagan tarzda amalga oshirilishi mumkin.

Kuzatuv metodining tavsifi



1-shakl. Kuzatuv metodining tavsifi

Bevosita kuzatuv – Bu tadqiqotchi bir vaqtning kuzatilayotgan guruhning a’zosi sifatida kuzatuvni olib borishidir. Bunday tadqiqotda guruh a’zolari o’zlarini kuzatilayotganligini bilmasliklari kuzatuvni yashirin olib borishga imkon yaratadi. Bu uslub yopiq guruhlarini kuzatishda samarali hisoblanib etnografik tadqiqotlar va yopiq guruhlarda keys stadi(muammoli vaziyat) tadqiqotlarida qo’llaniladi. Bunday tadqiqot texnikasini ko‘p vaqt saraflashni talab etadi.


3. Kontent-tahlil – bu sotsiologik tadqiqotlarda foydalaniladigan, xujjatlarni tahlil qilish usulidir. Kontent-tahlilni o‘ziga hos hususiyati shundaki tadqiq etilayotgan matnda (hususan, bayonnomma, doklad, publikatsiya) u yoki bu ma’noviy birliklarni aks etishi va qaytalanishni hisobga olishni ko‘zda tutadi. «Bunday tarzdagi miqdoriy matnlar tavsifini olish, sifatli hususan, xujjatning latent-yashirin mazmuni borasida hulosalar qilish imkoniyatini beradi».¹ Shu sababdan bu metod xujjatlarning miqdoriy-sifatiy tahlili sifatida tavsiflanadi. Ushbu empirik sotsiologik metod sotsiologik tadqiqot natijasida olinadigan ma’lumotlar sifatli tahlilida sub’ektivlikni kamaytirishga yordab beradi. Sotsiologik tadqiqotlar amaliyoti va nazariyasi barcha sotsiologik izlanishlar xujjatlarni tahlil etishdan boshlanishini ko‘rsatmoqda. Hozirgi vaqtida bu metodni qo’llanilishi kompyuter texnologiyalaridan foydalanish bilan bog‘liq.

4. Jamoatchilik fikrini o‘rganishda qo’llaniladigan usullaridan yana biri «*fokus – guruh*» tadqiqoti hisoblanadi. Sotsiologiyada fokus – guruh tadqiqotida sifatiy tadqiqot sifatida yondashiladi. Bu usul ob’ekt haqida nafaqat ratsional bilimlarni, balki unga nisbatan emotsiyal munosabatlarni ham tadqiq qilish imkonini beradi. «*Fokus – guruh*» tadqiqoti olingan ma’lumotlar nafaqat jarayonning umumiyligini qonuniyatlarini ko‘rish, balki uni chuqur his etish imkonini beradi.

Fokus-guruh tadqiqoti, olinadigan ma’lumotlarning darajasi, jamoaviy o‘zaro-ta’sir etish muhokama ob’ektining ijtimoiy konteksidan tortib ong osti motivlari asosida yuzga kelishini, ishtirokchilar uni tanlash yoki rad etishi asosidan tashkil topadi.

Fokus-guruh tadqiqotlari qo’lllovchi asosiy soha, tovarlar va xizmatlar an’anaviy marketingi borasidagi marketing tadqiqotlar hisoblanadi. Ta’kidlab o‘tish lozimki, hozirga kunda fokus-guruh tadqiqotlari notijorat tashkilotlar faoliyatini tahlil qilishda keng foydalanilmoqda. Masalan turli ijtimoiy loyihamalar va dasturlarning samaradorligini baholashda shuningdek siyosiy arboblarning imijdini o‘rganish bilan bog‘liq “siyosiy maketing” da qo’llanilmoqda. Aytish mumkini, fokus-guruh tadqiqotini o’tkazish tadqiqotning muhim elementiga aylanib va keng ma’noda bozor va demokratiya institutlarini ishlab turishini muxim elementiga aylanmoqda.

Sotsiologik tadqiqotlar tasnifi:



2-shakl. Sotsiologik tadqiqot tasnifi

Nazorat savollari:

1. *Sotsiologik tadqiqot o‘tkazishning turlari sanab bering?*
2. *Sotsiologik tadqiqot usullarining qisqacha xususiyatlari ta’riflab o‘ting?*
3. *Miqdoriy tadqiqotlar usullarini sanab o‘tirg?*
4. *Sifatiy tadqiqotlarga misollar keltiring?*

Adabiyotlar

7. Devyatko I.F. Metodы sotsiologicheskogo issledovaniya. Uchebnoe posobie. Moskva «Universitet knijnyu dom», 2009.
8. Dobrenkov V.I. Kravchenko A.I. Fundamentalnaya sotsiologiya. 3-tom. Metodika i texnika issledovaniya. Moskva.; INFRA-M. 2009
9. Горшков М. Шереги Ф. Прикладная социология: методология и методы. Москва.; 2011.
10. Ядов В.А. Стратегия социологического исследования: описание, объяснение, понимание социальной реальности: Учебник для студентов вузов. М.: Добросвет, 2008..
11. Earl Bable. The practice of social research. 2010. Wadsworth. CECGAGE Learning. USA.
12. Loraine Blaxter, Christina Hughes, Malcolm Tight. How to research. Fourth edition. Open University Press, 2010. England, UK.

3-MAVZU: SIFATIY SOTSILOGIK TADQIQOTLAR DASTURI. (4-coat)

Reja:

1. Dasturning tezkorligi va eksplitsitligi
2. Dastur tuzishda mantiqiy ketma-ketlik
3. Dastur tuzish bosqichlari

Tayanch iboralar:

Dasturning tezkorligi va eksplitsitligi, dastur tuzishda mantiqiy ketma-ketlik, dastur tuzish bosqichlari, dastur haqida ilmiy tasavvur, muammoni asoslash, tadqiqotning maqsadi va masalalarini aniqlash, asosiy tushunchalarni mantiqiy tahlil qilish, gipotezani olg'a surish va tushunchalarni operatsionalizatsiya qilish, tanlanadigan to'plamni aniqlash, metodlarni tanlash va instrumentariya tuzish, dala tadqiqoti, olingan ma'lumotlarni qayta ishlash va tahlil qilish, xulosalar va ilmiy hisobotni tayyorlash

3.1. Dastur sotsiologik tadqiqotning majburiy hujjati hisoblanadi. Sotsialistik tadqiqotning boshlang‘ich shart-sharoitlari, maqsadlari va masalalari, metodik ta’minoti, tashkiliy tuzilmasi uning dasturida aniqlanadi. U model va gipotezalar bilan ifodalangan nazariy bilimlar darajasidan, ob’ektga va tadqiqot instrumentlariga o’tadigan mantiqiy asoslangan sxemani ko’rsatadigan ilmiy hujjatdir.

Dastur haqida ilmiy tasavvur.

Fundamental akademik tadqiqotlar dasturlari maxsus izlanishlar natijasidir, ular alohida kitob va broshyura holida chop etiladi.

Operativ tadqiqotlar dasturi 5-7 betli mashina tekstiga sig‘adi. Lekin ular tuzilmalarining asosiy elemetlari o‘zgarmasdan saqlanadi, chunki uning har biri o‘zining funksiyasini amalga oshiradi: ya’ni, normativ, metodik, tashkiliy, informatsion yoki nazorat.

Empirik tadqiqot - tadqiqot dasturni ishlab chiqishni, kuzatuvni tashkil etishni, kuzatilayotgan va eksperimental ma’lumotlarni yozishni, boshlang‘ich umumlashtirishni taqazo etadi. Empirik anglash uchun faktlarni fiksatsiya qilish faoliyati xarakterli. Sotsiolotik tadqiqot – keng ma’nodagi o‘lhash kabi bu yangi faktlarni yig‘ish va ularni qo‘yilgan masalalarga bog‘liq ravishda tanlangan yoki qurilgan nazariy modellarni terminlarda interpretatsiya qilishdir.

Sotsiologiya saylovchilar fikri, o‘quvchilar bo‘sh vaqt, prezident reytingi, oila byudjeti va boshqalar haqidagi empirik informatsiyalarni olmay turib mayjud bo‘la olmaydi. Sotsiologning ishi tadqiqot maqsadlari va masalalari mavzularini tuzish bilan asosiy tushunchalarni aniqlash, ular orasida bog‘liqlikni o‘rnatish va bu bog‘liqliklarning ma’nosini aniqlash bilan boshlanadi.

Bu sotsiologiyaning nazariy asoslarini yetarli darajada yaxshi bilishni talab qiladigan intelektual, ijodiy ish. Jurnallar, byulletenlarda chop qilinadigan rasmiy statistikani birinchi navbatda tadqiqotga qo‘llaydi. Qolgan informatsiyalarni u sotsiologik so‘rovlardan oladi, u yerda odamlarning sub’ektiv fikri ochib beriladi. Javoblar matematik o‘rtalashtiriladi, umumlashgan ma’lumotlar statistik jadval ko‘rinishida keltiriladi. **Qonuniyatlar chiqariladi va tushuntiriladi.**

Bu bosqichda kuchli texnologik vosita bo‘lib global kompyuter tarmog‘i internet xizmat qiladi. Oxirgi natija ilmiy nazariyani qurish, u kelajak hodisalarini aytib berishni va praktik tavsiyalar ishlab chiqishni imkonini yaratadi.²

Demak, s.t. anketa tuzishdan emas, nazariy modelni tuzish, maqsadlar va gipotezalarni olg‘a surish, muammoni ishlab chiqish bilan boshlanadi. Shundan

² Research methodology, methods and techniques. C. R. Cothari. India. 2004. Page 21

keyin sotsiolog instrumentni (anketani) ishlab chiqishga, keyin boshlang‘ich ma’mulotlarni yig‘ish va uni ishlab chiqishga o‘tadi. Oxirgi bosqichda yana nazariy tahlil. Faqat shundan keyin praktik tavsiyalar qilinadi. Bugun empirik tadqiqot deb olim qo‘liga reprezentativ informatsiyani beradigan ilmiy xulosaning qoidasidan foydalananib, ma’lum dastur bo‘yicha o‘tkazilgan boshlang‘ich ma’lumotlarni yig‘ishni aytildi.

Ma’lumot yig‘ishning texnologiyasi “ma’lumotlar qanday olindi” savoliga javob beradi, ma’lumotlarning o‘zi tahliliy izlanishlar natijasidir va “tadqiqotda nima olindi” savoliga javob beradi. Empirik tadqiqotning strategiyasi tadqiqot dasturi orqali beriladi, unga tadqiqot predmeti nazariy modeli, tadqiqot ob’ektining empirik sxemasi, ma’lumot olishning metodlari va metodikasi, ma’lumotlarni tahlil va interpretatsiya qilish kiradi, lekin natija yozilgan ilmiy hisobot kirmaydi.

Sotsiologiyani rivojlantirishda tadqiqot dasturining roli katta, lekin bo‘rttirish kerak emas. U yordamchi funksiyani bajaradi. Fan yangi bilimlar bilan o‘savapti, empirik tadqiqot bermasdan, ilmiy nazariya berayapti.


Sotsiologik nazariya korxonaning tugallanayotgan bosqichi, ya’ni yig‘uv sexi, unga turli uchastkalardan ko‘pgina detallar konveyerda keladi. Bunday yig‘uv tizimining rolini tadqiqot dasturi bajaradi. Bu sotsiologik izlanishning ishchi mexanizmi, lekin sotsiologiyaning maqsadi emas. Yig‘ilgan faktlar bu fakat xom ashyo, yarim fabrikat, uning ustida nazariyachi ish olib borishi kerak: qayta ishslash, interpretatsiya qilish, isbotlash, ortiqchasini olib tashlash, korpusga nazariy bilimlarni kiritish va ularni empirik faktlardan ilmiyga aylantirish kerak.

Sotsiologning barcha ishlari sotsiologik tadqiqotning dasturida aks ettirilgan. Dastur strategik hujjatlar turiga kiradi, uning maqsadi kelajak korxonaning rejasini ko‘rish, barcha tadqiqotlarning konsepsiyasini ko‘rsatish. U aniq hodisa va jarayonlarning o‘rganishning metodologik yondoshishlari va metodik yo‘llarini nazariy asoslashni o‘z ichiga oladi. U sotsiologik tadqiqotning asosi hisoblanadi. Unda muammoni tanlash malakasi, ob’ekt va predmetni tanlanishi, bosqichlarini tashkil etish, yig‘ilgan ma’lumotlarni tahlil va interpretatsiyasini o‘z ichiga oladi. Dastur bu bir bosqichning tamomlanishi ikkinchisining boshlanishidir. U har doim to‘ldiriladi, aniqlanadi, qayta ishlanadi. Sotsiologik tadqiqot dasturi quyidagi asosiy momentlarni bataysil, aniq va tugallangan ravishda kiritadi: nazariy-metodologik qismi - muammoni formulirovka qilish va asoslash, maqsadni ko‘rsatish, tadqiqot ob’ekti va predmetini aniqlash, asosiy tushunchalarni mantiqiy tahlili tadqiqotning gipoteza va masalalarini formulirovka qilish; metodik qismi – tadqiqot qilinayotgan to‘plamni, boshlang‘ich sotsiologik interpretatsiyani yig‘ishda ishlatiladigan metodalarining xarakteristikasini, bu interpretatsiyani yig‘ish uchun instrumentlarning mantiqiy tuzilishini aniqlash, uni EHMda qayta ishslash sxemasini aniqlash. Adabiyoda tadqiqot dasturini tuzishning asosiy bosqichlari quyidagicha:

- Muammoni asoslash;

- Tadqiqotning maqsadi va masalalarini aniqlash;
- Asosiy tushunchalarni mantiqiy tahlil qilish;
- Gipotezani olg‘a surish va tushunchalarni operatsionalizatsiya qilish;
- Tanlanadigan to‘plamni aniqlash;
- Metodlarni tanlash va instrumentariya tuzish;
- Dala tadqiqoti;
- Olingan ma’lumotlarni qayta ishlash va tahlil qilish;
- Xulosalar va ilmiy hisobotni tayyorlash.

Biz yana ikkita yangi pozitsiya qo‘sish kerak deb hisoblaymiz: tadqiqot predmeti nazariy modelini tuzish va tadqiqot ob’ekti empirik sxemasini ishlab chiqish.



Sotsiologik tadqiqot o‘tkazishning asosiy bosqichlari.

Sotsiologik tadqiqot tugallangandan keyin anketani to‘g‘riligini tekshirish boshlanadi. Agar bular noto‘g‘ri to‘g‘irlangan bo‘lsa yoki 30 foiz to‘ldirilmagan bo‘lsa, bunday anketalar brakka chiqariladi va qayta ishlanmaydi. Ko‘p bo‘lmagan anketalarni qo‘lda qayta ishlash mumkin. Qolganlari kompyuterda qilinadi. Tajribali sotsiloglar dasturni tuzish uchun vaqtning 1/3 ni yoki yarmini ketkazadilar. Sotsiologik tadqiqotni tashxis qilishdagi vaqtning taqsimlanishi quyidagicha:

- a) programmani ishlab chiqish 30-40%;
- b) informatsiya yig‘ish 10-15%;
- v) kompyuterga ma’lumotni tayyorlash 15%;
- g) ma’lumotni qayta ishlash 5-10%;
- d) materiallarni tahlil qilish, hisobot yozish 30-40%.

Tadqiqotchi matematik hisoblarni natijasini olgandan keyin sotsiologik **ma’lumotlarni tahlil qilishga o‘tsa bo‘ladi. Tahlilning chuqurligi, ilmiyligi, ob’ektivligi tadqiqotchining bilimiga bog‘liq bo‘ladi.**

Uning tayorgarlik darajasiga, ijtimoiy hayotni tahlil etishga, bilimni qo‘llashga bog‘liq. Tadqiqotning oxirgi bosqichida uning natijalari hisobot ko‘rinishida rasmiylashtiriladi.³

Dastur tuzish har qanday sotsiologik tadqiqotning muvaffaqiyatini ta’minlaydigan asosiy shart hisoblanadi. Tadqiqotda dasturi ikki funksiyani, ya’ni ilmiy-anglash va ilmiy-tashkiliy funksiyalarni bajaradi. Birinchi funksiya tadqiqotning nazariy-metodologik butunligini ta’minlashdan iborat bo‘ladi, niukkanchnisi esa tadqiqot o‘tkazadigan jamoa a’zolarining samarali hamkorligini,.umumiyligi ilmiy va ilmiy-amaliy natijaga erishish maqsadida ular o‘rtasida mehnat taqsimotini ta’minlaydi. .

Ideal tuziladigan dasturga nisbatan qo‘yiladigan talablar qo‘yidagicha:

Birinchi talab — dasturning zarurligi. Dastursiz tadqiqot sinov va xatolar bilan o‘tkaziladigan izlashni esga soladi, kuch sarflash bilish samaradorligini oqlamaydi. Tadqiqot davomida tushuncha empirik ma’lumotlar bidan “to‘ldirilmamasligi” gipoteza yo‘qligida ma’lumotlarni qanda qayta ishlash aniq emasligi ma’lum bo‘ladi.ma’lumotlarni taxlil qilish bosqichida savollarni ishlab chiqish xursandchilikka olib kelmaydi, material to‘laligicha yig‘ilmagan bo‘ladi, tanlash ishning vazifalariga javob bermaydi, oldindan rejalashtirilgan savollarga javob olinmagan bo‘ladi. .Ishning yakunida tadqiqotchilar o‘zları boshqa ishni qilganlariga amin bo‘lishadi. Bu kabi holat puxta tuzilgan dastur bilan tadqiqotlarda hech qachon bo‘lmaydi. Ammo bu yerda shubha va yangi savollar samarali xarakterga ega bo‘ladi, dastur bo‘yicha maxsus maqsadga yo‘naltirilgan tekshirishni talab etadigan asosli gipotezalar tuziladi.

³ Research methodology, methods and techniques. C. R. Cothari. India. 2004. Page 26

Ikkinci talab — dasturning eksplipsipligi. Uning har bir holatlari aniq bo‘lishi kerak, barcha tarkibiy elementlari tadqiqotning mantig‘iga mos ravishda o‘ylab ishlab chiqilgan bo‘lishi va ravshan shakllanirilgan bo‘lishi kerak. Dasturni intuitiv tasvirlash qat’iy asoslangan barcha birlamchi asos va protsedura qoidalarini o‘mini bosa olmaydi. Bundan tashqari, dastur ilmiy jamoa uchun mo‘ljallangan yagona hujjat sanaladi, jiddiy tadqiqotlarni yakka tartibda o‘tkazib bo‘lmaydi va bunda ko‘pchlikni ishtiroki talab etiladi. Aniq ifodalangan dasturning yo‘qligi tufayli tadqiqot ishtirokchilari umumiy tilni yo‘qotishadi, savollarni aniqlashtirish va tuzishga ko‘p vaqt sarflashadi, bu holatga dastur bo‘lganda duch kelinma edi..

Uchinchi talab — dasturning barcha elementlarining mantiqiy ketma-ketligi.

Tadqiqotning maqsad va vazifalarini aniqlamasdan prinsipial rejani tanlashdan ishni boshlamaslik kerak. ob’ektn to‘la tasavvur qilmasdan xususiy gipotezalar ilgani surishga intilish yaramaydi. Tadqiqotning prinsipial rejasini ishlab chiqmasdan ma’lumotlar tanlash mumkin emas. Lo‘nda qilib aytganda, dasturning barcha zanjirlari bir-biri bilan chambarchas bog‘liq, biror bir zanjirdagi uzilish keyingi operatsiyalarda xatoliklarga olib keladi.

To‘rtinchi talab — dasturning egiluvchanligi. Ehtimol bu uchinchi talabni inkor etganga o‘xshaydi. Ammo amalda esa dasturning egiluvchanligi uning barcha elementlarini tadqiqot jarayonini rivoji dinamikasida aloqadorligini bildiradi, biror bir zanjirda xato uchraydigan bo‘lsa, dasturning barcha qismlarini sistematik sharhlab borishni zarur qilib qo‘yadi.

Masalan, pilotaj tadqiqot davomida muhim tushunchalarning ba’zilarining empirik interpretatsiyasi qoniqarli darajada emasligi ma’lum bo‘ladi. Interpretatsiyani o‘zgarishi konseptual chizmaning qaysidir qismlarini ko‘rib chiqishni taqozo etadi va, bu mos keladigan gipotezani (tushunchalarni qo‘llash bilan bog‘liq) boshqacha ilgari surishni shart etib qo‘yadi. Odatda ob’ektni oldindan to‘la taxlil qilish bosqichida tushunchalarni aniqlash ustida ish olib boriladi, gipotezani ilgari surishda esa predmetni tizimli taxlil qilishda o‘zgarishlar kiritiladi.

Odatda dastur tuzish ikki bosqichdan iborat bo‘ladi. Dastlab tadqiqotning maqsadi, vazifalarini ko‘rsatish, ehtimoliy gipotezani tuzish bilan dasturning maketi tuziladi, bundan keyin reja asosida dala tadqiqoti bosqichi keladi va, nihoyat, adabiyot manbalari va dala kuzatishlari asosida to‘la dastur tuziladi.

Niyoyat, barcha tadqiqot dasturlari ilgari taklif etilganidek, bevosita qat’iy chizma asosida tuzilmasligi kerak. Tadqiqot tipining xususiyatlari – nazariy-amaliy yoki amaliy-empirik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda uning uzilishida o‘zgarishlar qilish mumkin.

Dastur mustaqil ilmiy ish sifatida chop etilishi mumkin. Bu dastur asosida boshqa tadqiqotchilar ham empirik material to‘plashlari va taxlil qilishlarini nazardan qochirmslik lozim, shu asosda o‘zaro urinishlar orqali dasturning ilmiy

qadriyati oshishiga erishish mumkin. Dasturni chop etish ilmiy bilimni ishlab chiqarishdagi litsenziyaga o‘xshatish mumkin.

Nazorat savollari

1. Dasturning tezkorligi va eksplitsitligi degenda nimani tushunasiz?
2. Dastur tuzishda mantiqiy ketma-ketlikni sanab o‘ting?
3. Metodlarni tanlash va instrumentariya tuzishda nimalarga e’tibor berish kerak?

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Девятько И.Ф. Методы социологического исследования. Учебное пособие. Москва «Университет книжный дом», 2009.
2. Добреньков В.И. Кравченко А.И. Фундаментальная социология. 3-том. Методика и техника исследования. Москва.; ИНФРА-М. 2009
3. Горшков М. Шереги Ф. Прикладная социология: методология и методы. Москва.; 2011.
4. Ядов В.А. Стратегия социологического исследования: описание, объяснение, понимание социальной реальности: Учебник для студентов вузов. М.: Добросвет, 2008..
5. Earl Bable. The practice of social research. 2010. Wadsworth. CECGAGE Learning. USA.
6. Loraine Blaxter, Christina Hughes, Malcolm Tight. How to research. Fourth edition. Open University Press, 2010. England, UK.

4-MAVZU: ADABIYOTLAR, HUJJATLAR, BIRLAMCHI MA'LUMOTLAR TAHLILI

Reja:

- 1.So‘rov yoki intervyu o‘tkazish uchun joy va vaqtini belgilash**
- 2.Intervyuerning tashqi ko‘rinishi va kasbiy etikasi**
- 3. Kontent-tahlil usuli**
- 4. Hujjatli manbalar tahlili**

Tayanch iboralar

Qadriyatlar, milliy qadriyatlar, shaxsiy qadriyatlar, umuminsoniy qadriyatlar,diniy qadriyatlar, individualizm

Intervyu, kuzatish, hujjatlarni tahlil qilish sifatli tadqiqot usuli sifatida

So‘rov metodlari ikkiga bo‘linadi, ular anketa so‘rovi va intervyudir. Intervyuning bir necha shakllari mavjud. Suhbat tarkibiy tuzulishiga ko‘ra hujjatli intervyu (o‘tmish hodisalarini o‘rganish va dalillarni aniqlash) va fikrlar bildirish intervyusi (baho berish, qarashlari va munasabatlarini ko‘rsatib berish); mutaxassis va ekspertlar bilan bo‘ladigan intervyu (tashkiliy jarayonlari va protsedurasi bilan oddiy intervyudan farq qiladi). Intervyu olish texnikasiga ko‘ra ham erkin,

standartlashmagan va rasmiyashgan (shuning bilan birga yarim standartlashgan) intervylular farqlanadi. Erkin-intervyu bu uzoq davom etuvchi suhbat bo‘lib, umumiylastur bo‘yicha savollar qat’iyligi kuzatilmaydi. Bu usul tadqiqotni rejulashtirishda razvedka vazifasini o‘taydi. Standartlashgan intervyu rasmiyashgan intervyu kabi butun jarayonni qat’iy ishlab chiqishni talab etib, suhbat umumiy rejasida savollar aniqligi, ketaketligi va javoblar varianti ehtimolligi biriktirilgan bo‘ladi.

Intervyu o‘ziga xosligini inobatga olib intensiv («klinik», chuqur, uzoq, muddatli) va fokuslashgan respondent tor ta’sir doirasiga ko‘ra belgilanadi. Klinik intervyu maqsadiga ko‘ra respondent ichki motivlari, istak ishtiyobi to‘g‘risida ma’lumot olish. Fokuslashgan intervyu maqsadi esa ko‘rsatilgan ta’sir asosida sub’ekt reaksiyasi to‘g‘risida ma’lumot yig‘ish. Uning yordamida misol uchun inson axborotning alohida jahbalariga munosabat bildirishi aniqlanadi (matbuot, ma’ruza va shu kabilarga). Bunda axborot tekisti oldindan kontent-tahlil yordamida tahlil etiladi. Tahlil natijasida olingan ma’lumot birliklarni aynan qaysilari respondent tomonidan e’tiborga olinganligi aniqlanadi.

Yo‘naltirilmagan intervyu shakli «terapevtik» xarakterga ega bo‘lib, tashabbus to‘la respondent tomonida bo‘ladi, intervyu esa faqat «yuragidagilarni bayon etishga» yordam beradi.

Norrativ intervyu – intervyrerning erkin bayon etishga, turmush izohini ochib berishga yo‘naltirishi kuzatiladi.

Tashkil topish usuliga ko‘ra guruh va individual intervyu shakliga bo‘linadi. Birinchi holatda intervyrer guruh bilan suhbat bog‘lashga harakat qiladi. V.Pozner televizion uchrashuvlari bunga misol bo‘lishi mumkin. Telefon orqali bog‘lanishlar fikrlar bayonini ochib berishga imkon yaratadi.

Kontent-tahlil usuli

«Kontent» so‘zi aloqa va munosabatlar ob’ekti hisoblangan so‘zlarga, mazmunga, rasmga, belgilarga, tushunchalarga, mavzu, sarlavha va boshqa ma’lumotlarga aloqador. «Matn» bu – munosabatlar doirasidagi bayon, ko‘rinish yoki yozuv tarzida aks ettirilgan so‘zlar majmuasidir. Bu munosabatlar doirasi o‘z ichiga kitoblar, ro‘znomalar, jurnallar yoki maqolalar, yangiliklar va e’lonlarni, rasmiy hujjatlar, badiy va video filmlar, qo‘schiqlar, foto suratlarni hamda san’at asarlarini qamrab oladi.

Kontent-tahlil matnning tuzilishini tahlil qilgan holda ma’lumotlarni to‘plash va yig‘ish metodidir.

Uning asosiy tamoyillarini amerikalik sotsiologlar X.Lassuel va B.Berilsonlar ishlab chiqishgan. Kontent-tahlil jarayonlarini rivojlantirishda Rossiya va Estoniya sotsioglari, asosan A.N.Alekseev, Yu.Vooglayd, P.Vixalemm, B.A.Grushin, T.M.Dridze, M.Lauristinlar muhim hissa qo‘sishdi.

Kontent-tahlilning asosiy jarayonlari uning mazmun birliklarini aniqlashda boylanadi:

1) Alovida atamalarda ifodalangan tushuncha. Bu tushunchalar iqtisodiy sohada bo'lishi mumkin: xususiy mulk shallari, xususiy lashtirish, molivaviy tizim, pul munosabatlari, texnik taraqqiyot, xo'jalik usullari, boshqaruvni optimallashtirish va boshqalar; siyosiy mazmundagi atamalar: muxolifat va boshqaruv doiralari, millatchilik va internatsionalizm, avtoritarizm, demokratiya, xalqaro hamkorlik, konsensus, manfaatlar qarama-qarshiligi, axloqiy yoki huquqiy ramzlar, inson huquqi, gumanizm, faollik, tashabbuskorlik, qonun buzilishi, jinoyatchilik, korrupsiya; imiy mazmunda: model, tizim, kosmik bo'shliq va xokazolarda namoyon bo'ladi. Ma'lumki matn tahlili o'z mazmuniga ko'ra ko'plab muhim ijtimoiy ma'lumotlarni aks ettiradi. Masalan: fan va texnika oid ilmiy-texnikaviy yangiliklar ma'lumotlar manbai tushunchalarni qo'llash darajasi, tezligi bilan bog'liq.

2) Maqolalarda, matn parchalarida, abzaslarda aks ettirilgan to'liq mazmunlar, radio eshittirishlar va boshqalarda ifodalangan mavzu.

Hujjat mazmunini uning mavzusi asosida yanada to'laroq anglash mumkin. Tashabbuskorlik va serayratlik, byurokratizim va makazlashuvga qarshi kurash, inson huquqlar hamda qonuuchilikga rioya qilish, fuqarolik jamiyatida ijtimoiyadolat va teng huquqlilik mavzulari yoki davlatni mustahkamlash, markazlashuv, intizom va har qanday dushman bilan kurashish mohiyati ommaviy axborot vositalarida dolzarb muammolar sifatida siyosiy-g'oyaviy holatlar yoritilayapdi. Bunday holatlar shaxsiy hujjatlarda, o'zi va yaqinlari haqida, ishlab chiqarish, siyosat hamda san'atda ham namoyon bo'ladi.

3) Tashkilot va muassasalar, ijtimoiy institutlar, partiya va ijtimoiy harakatlar liderlari, ishlab chiqarish tashkilotchilari, taniqli fan va san'at arboblari, siyosatchilar, tarixiy shaxslar nomlari.

Guruqlar, jamoa birlashmalari, allohida shaxslar yoki ijtimoiy institutlar jamoatchilik fikriga ushbu xususiyatlar asosida ta'sir etishi mumkin. Ijtimoiy harakat va uning faollari tez-tez tilga olinishi yoki aksincha olinmasligidan ushbu harakat, uning lideri faoliyati haqida osongina xulosa chiqarish imkoniyatini beradi.

4) Tahlil birligi sifatida yaxlit ijtimoiy hodisalarini, rasmiy hujjatlarni, dalillar va voqealardagi xolatlarni qabul qilish mumkin. Ijtimoiy voqealar yoki davlat qarorlarining uzoq davr (vaqt) mobaynida yodda saqlanishi jamiyatga zarurligidan guvohlik beradi.

5) Reklama maxsulotidan foydalanuvchi, siyosiy yoki boshqa bir harakat tarafdori bo'lgan fuqaro manziliga qaratilgan shikoyatni yuborishdan maqsad, tijorat reklamalarida Estoniyalik sotsiolog M.Lauristin ommaviy munosabatlarni

o‘rganishdan kontent-tahlilning ob’ekti va predpeti sifatida quyidagi vazifalarni qo‘llash mumkinligini ta’kidlaydi.

1. Haqiqatning muammoli tomonlari, aksi.
2. Ijtimoiy institutni namoyish etuvchi va maqsadli aloqalarini amalaga oshiruvchi soha.

3. Auditoriyaning ommaviy aloqaga bo‘lgan ehtiyojini qoldirish s’hasi.
4. Munosabatlar va auditoriyaning o‘zaro ta’siri xududi.

So‘ngra sanab o‘tilgan har bir aspektga to‘g‘ri keladigan belgilar sistemasi olib chiqiladi. Masalan, birinchi aspektga reallikni aks ettirishi uchun quyidagi vazifalar qo‘yiladi:

- a) voqeа va hodisalarni tiklab qayta qurish;
- b) ommaviy aloqa vositalarining veqeilikni aks ettiradigan qonuniyatini o‘rnatish:

Matndagi belgi va xususiyatlarni kotent-tahlil orqali ularning miqdoriy tuzilmasini sistematik va ob’ektiv hisob-kitob qilish usuli yordamida ma’lumotlar olinadi. Markoffa, Shapiro va Veytmanlarning fikrlariga ko‘ra kotent-tahlilni «kodlashtirilgan mant» deb atash to‘g‘iroq bo‘ladi. Kotent-tahlilning sifatli va interpritativ yo‘nalishlari mavjud bo‘lib, ammo matn mazmunidagi miqdoriy ma’lumotlar asosiy o‘rin kasb etadi.

Sifatli kotent-tahlil pozivistik yondashuv vakillari tomonidan unchalik yuqori baholanmaydi. Bu yo‘nalish fiministik va tanqidiy yondashuv tadqiqotchilari tomonidan qo‘llab quvvatlangan. Miqdoriy yo‘nalish tarafdorlari gohida sifatli kotent-tahlil usulidan foydalanib tadqiqotni ishonchlilagini ta’minlaydilar.

Kotent-tahlil so‘rovsiz tadqiqot usuli bo‘lib, undagi belgilarni, so‘zlarni kiritish jarayonida tadqiqotchining sub’ektiv ta’sirisiz ma’lumotlarni o‘rganuvchi va qabul qiluvchilar o‘rtasida aloqani ta’minlaydi.

Kotent-tahlilda matnni oddiy o‘qib chiqishdan farqli o‘laroq uni tizmli tarzda muntazzam tadribga o‘tkazishga va mazmun mohiyatiga yetiishga chorlaydi. Bundan tashqari matndagi yashirin ma’noga ega so‘zlarni, ma’lumotlarni aniqlash mumkin. Kotent-tahlil o‘zida tasodifiy tanlovnii, aniq baholashni va mavhumlashgan Eksperimental harakatlarni bir vaqtda mujassamlashtirgan. Kodlashtirish – miqdoriy ko‘rsatkichlarni, matndagi xususiyatlarni belgi yoki sonlar bilan almashtirib belgilab qo‘yishdir.

Muammoni ifodalash (formulirovana). Ko‘plab tadqiqotlar kabi kontent-tahlil metodi ham muammoni ifoda etishidan boshlanadi. U o‘z navbatida ramzlar yoki axborotlarda o‘z aksini topgan o‘zgaruvchanlikda qo‘l keladi. Misol tariqasida gazetalarda siyosiy kompaniyalarning saylov oldi holatini qay tarzda yoritilishini

o‘rganaylik. Bunda tuzilayotgan «yoritish» qurilmasi o‘z ichigaxarakter ta’sir darajasi va bir nomzodning boshqa bir nomzodning afzallik tomonlarining mavjudligini mujassam etadi. Bunda saylov kompaniyalarini matbuotda yoritilishini so‘rovga asoslanib ijtimoiy fikrdan bilib olishimiz mumkin. Ammo eng yaxshi usul kontent-tahlildan foydalanib gazetani tadqiq etish hisoblanadi.

Tahlil birliklari. Tadqiqotchining tahlil birliklarini qabul qilish: masalan, saylov kompaniyalarning kundalik soni qabul qilinishi mumkin.

Tanlov. Kontent-tahlilda tadqiqotchilar tanlov usullaridan tez-tez foydalanib turadilar. Avvalambor ular tanlov elementlari va populyatsiyasini aniqlaydilar. Populyatsiya sifatida barcha so‘z, gaplar, abzaslar yoki maqolalarni ko‘rsatishimiz mumkin. Populyatsiya shunig bilan birga o‘z ichiga ma’lum bir vaqt mobaynidagi televizion ko‘rsatuvlarda namoish etadigan, suhbat, voqeа, sahifa va epizodlarni olishi mumkin. Masalan, Amerika jurnallarida ayollar va ozchilik namoyondalari qanchalik ifodalanganligini bilish uchun tahlil birligi sifatida «maqolani» olaylik. Populyatsiya o‘z ichiga 1969-1989 yillar o‘rtasidagi U.S. News & world Report, Time da chop etilgan barcha maqolalarni qamrab oladigan bo‘lsa avvalambor bu jurnallarning ushbu yillardagi nashiryotini tekshirib, sinchkovlik bilan «maqola» tushunchasi ostida nimani inobatga olishimizga aniqlik kiritamiz. Masalan, kinofilmlar obrazi maqola sifatida qabul qilinishi mumkinmi? Tekstning maksimal o‘lchami ko‘rsatilishi mumkinmi? (masalan, 2 gapdan tashkil topgan tekst maqola bir necha qismdan iborat bo‘lib bir necha sahifasida chiqsa uni qay tarzda yahlitmi yoki alohida maqola sifatida qabul qilishni aniqlashni o‘rganib har bir sonda o‘rtacha 45 ta maqola yoritilaniga guvoh bo‘lamiz). Yil davomida esa 52 sonda sahifada chiqanligini ko‘ramiz. Yuqorida jurnallar sahifalari 20 yil mobaynida nashr etilganini inobatga olsak populyatsiya soni tahminan 140000 maqoladan iboratligiga ishonch hosil qilamiz ($3*45*52*20=140400$) tanlov uchun raqamli ko‘rsatkichlar shu maqola ro‘yhati bilan boriladi so‘ng tanlov shakli va hajmini izohlaymiz. Byudjet va imkoniyatlarini inobatga olgan holda tanlov raqamini 1400 maqola bilan cheklaymiz. Bu o‘z navbtida tanlov proporsiyasining 1% ni tashkil etadi. So‘ng tanlov shaklini aniqlaymiz. Bunda biz jurnal nashiryoti davriy bo‘lganligi tufayli (jurnalning bir yillik nashiryoti orasidagi interval bir haftani tashkil etadi) sistemalashgan tanlovdan saqlanamiz. tadqiqot uchun barcha sonlar zarurligi tufayli sratefikatsion tanlovdan foydalanimiz. Stratifikatsiya jurnal bo‘yicha o‘tkaziladi: $1400/3=467$. Maqolaning 20 yil mobaynida taqdim etilishga ishonch hosil qilishni istasak, tanlovni il bo‘yicha ham stratifikatsiyalaymiz ($14000/3=467/20=23$) natijada tahminan yilida har bir jurnal uchun 23 tadan maqola to‘g‘ri keladi.

Nihoyat har bir yil mobaynida har bir jurnaldan 23 ta son sarflab olishda tasodifiy raqamlar jadvalidan foydalangan holda tasodifiy tanlovnini tuzamiz. Bunda barcha tanlov tadbirlarini qayd qilib borish uchun ramali ish jadvalini tuzamiz.

Jurnal	Nashriyot sanasi	Maqola	Maqola		Tanlovdagi maqola raqamim
			soni	Tanlovda bormi?	
Time	Yanvar 1-7, 1969	2-3 b	000001	yo‘q	
Time	..	4 b, pastda	000002	yo‘q	
Time	..	4 b, yuqorida	000003	Ha-1	0001
Time	Mart. 1-7, 1989	2-5 b	002101	Ha-10	0454
Time	..	6 b, birinchi, kalonka	002102	yo‘q	
Time	..	6 b, chap kalonka	002103	yo‘q	
Time	7 b.....	002104.....	yo‘q.....	
Time	Dekabr. 24-31, 1989	4-6 b	002201	Ha-22	0467
Time	..	5 b pastda	002203	yo‘q	
Time	..	5 b yuqorida	002203	Ha-23	0468

«Ha»- jadvaldan olingan raqamni anglatib. Undan keyingi raqam esa yil bo‘yicha saralangan maqola sonini ko‘rsatadi.

Kodlash tushunchalarni tuzilmasi va o‘zgaruvchanligini misol tariqasida lider roliga to‘g‘ri keladigan ispan yoki afroamerikalik ayol obrazini yaratish kerak. Avvalom bor, maqolada ko‘rsatiladigan operiatsional terminlardan foydalanib va shaxsni klassifikatsiyalovchi yozma qurilmmlardan foydalangan holda «lider» tuzishda tasavvur hosil qilamiz. Masalan, maqolada vafot etgan kishilar yutuqlari haqida bayon etilagan bo‘lsa uni liderlik roliga hos deb bo‘ladimi? yoki korparatsiya prezidenti yoki skaut tashkiloti qizlar lideridan qaysi biri liderlik roliga xos? Shuning bilan birga biz maqoladagi jins va irqiy mansubligi hali izohlashimiz zarur. Ular ko‘rsatilagan foto surat yoki teksha ravshan bo‘lmasa qaysi asnoda irqiy va jinsiy mansublikni aniqlashimiz mumkin.

Qiziqishimiz doirasi predmeti ijobiy liderlik roli bo‘lganligi tufayli. Lider roli ijobiy yoki salbiy xarakterga ega ekanlagini ko‘rsatib o‘tishimiz lozim. Biz bunga manfentli yoki latent kodlashtirishdan foydalangan holda erishishimiz mukin.

Manfentli kodlashtirishdan foydalanganda sifat va jurnallar yig‘indisini tuzamiz. Masalan, ijrochining xarakterlovchi ijobiy terminlar bo‘limi «a’lo» yoki «malakasiz» kabi jumlalar bo‘lishi mumkin. Latent kodlashtirishda esa mulohaza yuritish uchun tartib qoida tuzamiz. Masalan, ijobiy va salbiy jumalarga tayangan holda kirizisli holatlarni keltirib chiqarayotgan diplomatlar tarixini klasifikatsiyalash o‘z firmasining foydasini tashkil eta olmayotgan hizmatichi yoki bo‘lmasi sud jarayonlarida yutuqqa erishayotgan advakotlarni klasifikatsiyalashimiz mumkin.

Liderlik rolini tadqiq etishda jurnal maqolalarni latent kodlash savolnomasi namunasi.

1. Maqolalar xarakteristikasi. Qaysi jurnaldan olingan nashiriyot san’asi nashiriyot hajmi, maqolaning nimaga bag‘ishlanganligi, sahifasidagi joylashuvi, foto surat mavjud yoki mavjud emasligi.

2. Maqoladagi shaxslar. Maqolada necha kishi tilga oligan? Ulardan nechtasi maqolada muhim rol o‘ynaydi. Ko‘rsatilgan shaxslar jinsi va irqi.

3. Liderlik roli. Maqolada ko‘rsatilgan kishilar liderlik roli uning qaysi soha bilan bog‘liqligini ko‘rsatish.

4. Ijobiy yoki salbiy rol. Maqolada berilgan malakaviy yoki mudorlik rolida ijobiy yoki salbiy reting darajasini ko‘rsatish. mumkin: 5 = eng ijobiy: 4 = ijobiy: 3 = neytral: 2 = salbiy 1 = eng salbiy 0 = zid.

Maqola uchun qaydnama jadvaliga namuna

Tadqiqotchi: *prof, Nyuman, departamenti
Syuzan Dj*

sotsiologii

Mavzu: *Jurnal yangiliklari bo‘limida etnik ozchilik namoyondaliri*

Maqola № 0454. Jurnal: *Time*. Sana: *Mart 1-7, 1989*. Hajm: *14 miqdor*.

Ko‘zda tutilgan kishilar: 8. Fotosuratlar soni: 0

Muhim o‘rin egallagan kishilar soni: 3 Maqola mavzusi: *Xalqaro ish*

Shaxs: 1 Irqi: oq Jinsi: *E* Lidermi? *Ha* Sohasi? *Moliyasi* Reyting 5

Shaxs: 2 Irqi: oq Jinsi: *E* Lidermi? *Yo‘q* Sohasi? *Boshqaruv* Reyting 2

Shaxs: 3 Irqi: *qora* Jinsi: *A* Lidermi? *Ha* Sohasi? *fuqaro huq*. Reyting 0

Shaxs:_ Irqi:_ Jinsi:_ Lidermi? _Sohasi? _____ Reyting_____

Shaxs:_ Irqi:_ Jinsi:_ Lidermi? __Sohasi? _____ Reyting_____

Shaxs:_ Irqi:_ Jinsi:_ Lidermi? __ Sohasi? _____ Reyting_____

Yuqoridagi jadval tadqiqotchi kodlashtirishi uchun tuzilgan qaydnomalar jadvali hisoblanadi. Har bir tahlili birligi uchun alohida qayd jadvali tuziladi. Jadval tuzishda qog‘oz varaqalaridan foydalanish shart emas, bunda kompyutr fayldan ham ko‘p foydalanishadi. Har bir birlik uchun bir kartochka sig‘imidan ortiq ma’lumot mavjud bo‘lsa qo‘srimcha kartochkadan ham foydalanish mumkin.

Masalan, tadqiqot vaqtida shu narsa aniqlandiki 1 ta maqolani o‘qib chiqish va kodlash uchun 15 daqiqa vaqt sarflanar ekan. Bunga tanlash va jurnaldagi maqolalarni joylashtirishga kengan vaqt kirmaydi. O‘rtacha 1400 ta maqolani kodlash uchun 350 soat kerak. Bu jarayonga kodlashni aniqligini tekshirish kirmaydi. Hisob-kitob bo‘yicha 40 soatlik mehnat haftasida 350 soat, ya’ni 9 haftalik tinimsiz mehnatdir. Kodlash jarayoni uchun assistant yordamchilarni jalgashish qulay.

Tadqiqotchi tomonidan chiqarilgan xulosalar izlanuvchining tanqidiy punkti hisoblanadi. Shuni yodda tutish kerakki, kontent-tahlil tekstni tuzgan insonning maqsadini aniqlay olmaydi. U faqat tekstda mujassam bo‘lgan mazmunni aniqlaydi. Masalan, kontent-tahlil bolalar kitoblarida har xil gender normalari mavjudligini ko‘rsatadi. Bu bola shu gender normalari bilan tarbiyalanadi degani emas, bunday xulosa chiqarish uchun mustaqil tadqiqot va bola psixologiyasini chuqur o‘rganish lozim.

Hujjatli manbalar tahlili

Hujjatli manbalar tahlili – sotsiologik tadqiqot metodlarining asosiy ko‘rinishlaridan biri bo‘lib, qo‘lyozma, bosma matnlardagi, shuningdek magnitofon va kinolentalardagi informatsiyalarni o‘rganadi, bu albatta sotsial hayotning muhim xususiyatlarini tadqiq etishga xizmat qiladi. Hujjatlar tahlilining kompleks (to‘laqonli qamrab olingan) xususiyati tadqiqot ob’ekti haqidagi jami axborotni o‘rganishni ifoda etadi.

Sotsiologik tadqiqotni boshlash oldidan foydalanish mumkin bo‘lgan hujjatlarning haqiqiyligi va ishonchlilikiga iqror bo‘lish lozim. Jumladan, matn mazmuniga, maqsadi, yo‘nalganligiga, uni keltirib chiqaruvchi sabablari va oqibatlari, muallifini aniqlashga harakat qilinadi. Bu jarayon davomida hujjatda yoritilmagan qirralarni aks ettiruvchi qo‘srimcha hujjatlar (ikkilamchi hujjat) izlanadi. Hujjatlar tahlilining bir qator turlari mavjud bo‘lib, ular asosan amaliy ehtiyojlarga, tadqiqotning xususiyati va maqsadi, hujjatning o‘ziga xosligiga bog‘liq holda turlanadi, bular;

1. An’anaviy metodlar.
2. Mumtoz (sifatli) metodlar.
3. Miqdoriy metodlar.

Bular o‘ziga xos maxsus xususiyatlarga ega bo‘lsada, bir-birini rad etmaydi, balki to‘ldirib boradi va ishonarli, asosiy axborot olishdek umumiylar maqsad sari harakatlanadi.

I. Hujjatda aks etgan axborot an’anaviy metod yordamida o‘rganiladi, uning yordamida hujjatda ifodalangan mazmunning eng chuqur hujjatlarini ham anglash imkonii tug‘iladi, shuning uchun bu tahlil turi intensiv deb baholanadi. An’anaviy tahlil tashqi va ichki bo‘lishi mumkin. Tashqi tahlil hujjatning tarixiy tomonlarini aks ettirsa, ichki tahlil hujjat mazmunini tadqiq etib, muallifning shaxsiy munosabatlar dinamikasini anglatadi. Tadqiqot o‘tkazish tartibi quyidagicha amalga oshiriladi;

1. Tashqi tahlil - bunda hujjatning shakli (rasmiy, norasmiy va h.), uning ishlab chiqilish vaqtini va joyini, muallifi, maqsadi, yo‘l qo‘yilgan xatolar, hujjatning yo‘naltirilganligini aniqlanadi.

2. Ichki tahlil- bunda hujjatni ishlab chiqishga turki bo‘lgan sotsial faktorlar, o‘rganilayotgan hujjatning sotsial effektivlik darajasi, uni ko‘rib chiqishga mo‘ljallangan amaliy tadbirlar aniqlanadi.

II. Miqdoriy tahlil an’anaviy tahlilning sub’ekativlik xususiyatini oldini olishga qaratilgan, u hujjatning konkret jihatlarini tadqiq etishga yordam beradi. Bunda miqdoriy mazmun o‘lchanadi va tahlil natijalarini ob’ekтивligi oshadi. Bu metodni ekstensiv deb baholaydilar. Bu metodning konkret-tahlil turi tez-tez foydalaniladi.

Hujjatlar tahlili sotsiologik tadqiqotlarning barcha bosqichlarida sotsiologik muammolarning barcha turlarini tadqiqlashda qo‘llaniladi. Uning yordamida axborot to‘plash nisbatan qisqa vaqt talab qiladi. Shuningdek, kuzatish va so‘rovlarga qaraganda, hujjatlar o‘zining yuqori asoslanganligi, ishonarliligi, aniqligi, umumiyligi bilan farqlanadi, nihoyatda kerakli ma’lumotlar ham ko‘pincha hujjatlar tahlili orqali olinadi. Mas; Davlat organlari hujjatlari, aholi soni qayd qilish va h.

Verbal hujjatlar tahlili- yozma shakldagi hujjatlardan ma’lumot to‘plashga xizmat qiladigan metod, uning ko‘pgina usullari an’anaviylik, mumtoz, miqdoriylik bilan uyg‘unlashib ketadi. (An’anaviy) verbal hujjatlar tahlilining an’anaviy metodiga quyidagilar kiradi;

1. Tarixiy metod-bunda hujjatning ishonarlilik va asoslanganlik muammosi tekshiriladi. Jumladan, hujjat muallifi vaqtini, joyini, uni keltirib chiqargan sabablar, xatoliklar aniqlanadi. Hujjatning ishonarligrini aniqlashda uning muallifini topish muhim ahamiyat kasb etadi. Hujjatning asoslanganligi hujjat mazmunini mushohada etish, uning sinfiy va siyosiy yo‘nalishlarini topishga borib taqaladi.

2. Adabiy metod- muallifning o‘ziga xos matn yozish yo‘li va u foydalanadigan so‘zlar lug‘ati tekshiriladi.

3. Psixologik metod- hujjatdagi voqe'likni yoritishdagi mualliflik mahoratini va uning ijtimoiy jabha bilan uzvivyligi aniqlanadi.
4. Sotsiologik metod-hujjatni sotsial sohadagi ahamiyatini o'rganadi.
5. Lingvistik metod-matnning tarkibini tadqiqlaydi.

Ikonografik hujjatlar tahlili- kino va fotohujjatlar, tasviriy san'at asarlarining mazmunini to'g'ridan-to'g'ri tahlil orqali sotsial informatsiya to'plash metodi hisoblanadi:

1. an'anaviy (sifatiy);
2. shakllangan (tarkibiy va mazmuniy);

Bu metodda ko'pincha EHMlardan foydalaniladi.

An'anaviy metodga barcha ikonografik hujjatlar yakka va ko'plik shaklda kiradi. Masalan; hujjatlari kinokadrlarga berilgan tavsiflar ham kiritiladi.

Shakllangan ikonografik hujjatlar tahlili bir xildagi hujjatlar to'plamini o'rganishda qo'llanilishi mumkin, u hujjat mazmunini kontent-tahlil birliklari tarzida o'rganadi. U portretlar tahlilidan tortib toki markalar tahliligacha o'rganish imkoniyatiga ega.

Sotsiologik axborotning ikkilamchi tahlili - ilgari turli sotsiologlar tomonidan to'plangan sotsiologik axborotlardan yangi tadqiqot vazifalarini bajarishda foydalanish jarayoni. Bu metod yordamida axborotlar asosidagi sotsiologik bilimlar hamkorligi oshadi. Bunday axborotlardan to'laroq foydalanish tadqiqot proekt (loyiha)larini (ekonom) tejamkorligini ko'paytiradi, biroq sotsiologlar o'zlarini to'plagan ma'lumotlarning taxminan 20%ini ishlata oladilar xolos. Sotsiologik axborotlarni ikkilamchi tahlili yordamida maxsus tadqiqotlarsiz o'rganilayotgan muammo bo'yicha qo'shimcha ma'lumotlar olish mumkin bo'ladi, asosiysi vaqt va kuch tejaladi.

Bu metodning e'tirof etiladigan muhim funksiyasi bo'lib, standartlashtirilgan sotsiologik ma'lumotlarni olishning metodik jihatdan ta'minlanishini amalga oshirish tashkil etadi. Shuningdek, u tadqiqotchi to'plagan axborotlarni ishonarli va sifatliliginiz nazorat qiladi.

Diskriminantli tahlil-sotsiologik tadqiqot ob'ektlarini ekspertlar tomonidan tasnifining sifatini baholovchi sotsiologik axborotning ko'p o'lchamli statistik tahlil

metodlaridan biri, shuningdek talab qilinganda ob'ekt tasnifini qayta amalga oshirishga yo'naltirilgan. Amaliyotda bu metod ob'ekt xususiyatlarini taqsimlash ma'nosida keladi. Diskriminant tahlilning quyidagi qo'shimcha amallari tavsiya etiladi:

1. ekspert guruhlarga nisbatan ob'ektlarning ta'siriga xos belgilarni qayd etish;
2. ekspertli klassifikatsiya sifatini baholaydigan diskriminantli tahlilni tashkil etish;
3. ob'ektning qaysi bir guruhga mansubligini tahlil qilish;
4. tanlash yo'lini tekshirish, nazorat qilish;
5. to'g'ri tasniflarni alohida va butun holicha foiz hisobida o'lchash;
6. olingan ma'lumotlar sifatini baholash.

Sotsiologiya tarixida ushbu yo'nalishda dastlabki tadqiqotlar, asosan, shaxsiy hujjatlarni o'rghanishda qo'llanilgan. XX asr boshida amerikalik sotsiolog U. Tomas va polshalik F.Znaneskiy polyak emigrantlarini shaxsiy hujjatlarini o'rghanishga qattiq bel bog'ladilar. Tadqiqotchilar polyaklarning Yevropa va Amerikadagi holatini tahlil qilish uchun dehqon emigrantlarning o'z yaqinlari bilan xat orqali yozishmalari, arxivdagi emigrantlar haqidagi gazeta ma'lumotlari va shu kabi ko'plab qator hujjatlardan foydalangan edilar. Shuningdek, tadqiqotchilar iltimosi bilan bir dehqon 300 betli ajoyib avtobiografiyasini yozgani ham muhim hujjat bo'lib xizmat qildi.

Ma'lumotlarni qayd qilib yozma va bosma hujjatlarga, kino yoki fotoplyonka, magnit lentasidagi yozuvlarga ajratiladi. Maqsadga yo'nalganlik nuqtai nazaridan tadqiqotchi tomonidan o'zlashtirilgan hujjatlarni aytishimiz mumkin. (masalan; Tomas va Znaneskiy tadqiqoti). Bunday hujjatni biz «maqsadli» deb ataymiz. Biroq sotsiolog ko'pincha unga bog'liq bo'lмагan holda tuzilgan, turli maqsadlarga qaratilgan asl hujjatlar bilan ishlaydi. Aynan, shunday ma'lumotlarni sotsiologik tadqiqotlarda hujjatli ma'lumotlar deb ataydilar.

Maqsadiga ko'ra hujjatlar shaxsiy va noshaxsiy yo'nalishlarga bo'linishi qayd qilinadi. Shaxsiy hujjatlarga alohida yuritiluvchi hisobda turgan kartochkalar

(masalan; imzolangan anketa va blankalar), xat, kundalik kirsa, noshaxsiy hajjatlarga statistik yoki voqeaviy arxiv ma'lumotlari kiradi.

Mavqeiga qarab hujjat manbalarini rasmiy va norasmiy hujjatlarga bo'lamiz. Rasmiy hujjat manbalariga davlat materiallari, qonunlari, rasmiy majlislar, devoriy gazetalar, arxivlar, turli korxona va muassasalarning joriy hujjatlari, sud organlarining qarorlari, moliya ma'lumotlari va boshqa shunga o'xshash hujjatlar kiradi.

Norasmiy hujjatlarga esa yuqorida aytib o'tilgan ko'pgina shaxsiy materiallar, shuningdek, alohida fuqarolar tomonidan tuzilgan noshaxsiy hujjatlar (masalan, statistik ma'lumotlar) kiradi.

Hujjatlarning asosiy guruhiga esa ommaviy axborot vositalarining materiallar; gazeta, jurnal, radio, televideniya, kino videolavhalari kiradi.

Shuningdek, ma'lumotlarning kelib chiqishiga qarab hujjatlar birlamchi va ikkilamchi guruhlarga ajratiladi.

Birlamchi hujjatlar to'g'ridan-to'g'ri kuzatish yoki so'rov, bevosita hodisani ko'rib belgilab qo'yish asosida tuziladi. Ikkilamchi hujjatlar esa qayta tahlil,birlamchi manbalarni qaytadan o'rghanish asosida tuziladi.

Shuningdek, hujjatlarning asl mohiyatiga qarab guruhlash mumkin. Masalan, adabiy ma'lumotlar, tarixiy va ilmiy arxivlar, sotsiologik tadqiqotlar arxivlariga bo'linadi.

V. AMALIY MASHG'ULOT MATERIALLARI

1-Seminar

MAVZU: MIQDORIY VA SIFATIY SOTSILOGIK TADQIQOTLARNING AMALIY VA EMPIRIK JIHATLARI

Reja:

1. Sotsiologik tadqiqot o'tkazishning turlari
2. Sotsiologik tadqiqot usullarining qisqacha xususiyatlari
3. Miqdoriy va Sifatiy tadqiqotlar

Seminar mashg'ulotini olib borish tartibi: Tinglovchilardan ixtiyoriy ravishda kichik guruhlar shakllantiriladi, mavzu buyicha asosiy tushunchalarni javdal va sxemalari shakllantiriladi. Tinglovchilar o'zлari bajargan amallarini individual yoki guruhiy tarzda izohlab,himoya etadilar.

Seminar mashg'ulotini olib borishda qo'llaniladigan metodlar: “Bumerang”, “Charxpalak”, “Venna diagrammasi”, “BBB” “FSMU”, “Tushunchalar izoxi”

“BAHS-MUNOZARA” METODI

Metod ikki yoki undan ortiq shaxslar tomonidan muayyan vaqt oralig'i va qat'iy qoidalarga muvofiq tashkil etiladigan og'zaki bahs bo'lib, tinglovchi larda o'r ganilayotgan mavzu bo'yicha erkin, asosli fikrlarni bildirish qobiliyatlarini shakllantirishga xizmat qiladi. O'quv mashg'ulotlarida bahs-munozaradan foydalanishda mavzuga doir ma'lum masalalar hal qilinadi.

Metodni qo'llashda quyidagi tartibda ish ko'rildi:

Izoh: 1) bir tinglovchi ga ikki marta so'zga chiqishga ruxsat etilmaydi;


2) o'qituvchi (boshlovchi) tinglovchi larning mavzudan chetga chiqmasliklarini qat'iy nazorat qilib boradi, bordi-yu, shunday holatlar sodir etilsa, so'zlovchilar bu haqida ogohlantiriladi.

“BILAMAN. BILISHNI XOHLAYMAN.

BILIB OLDIM” (BBB) METODI

Metod tinglovchi larga muayyan mavzular bo‘yicha bilimlari darajasini baholay olish imkonini beradi. Uni qo‘llashda tinglovchi lar guruh yoki jamoada ishlashlari mumkin. Guruhda ishlashda mashg‘ulot yakunida guruhlar tomonidan bajarilgan ishlar tahlil qilinadi.

Guruhsiz faoliyati quyidagi ko‘rinishda tashkil etilishi mumkin:



Foydalanilganish uchun adabiyotlar:

1. Девятько И.Ф. Методы социологического исследования. Учебное пособие. Москва «Университет книжный дом», 2009.
2. Добреньков В.И. Кравченко А.И. Фундаментальная социология. 3-том. Методика и техника исследования. Москва.; ИНФРА-М. 2009
3. Горшков М. Шереги Ф. Прикладная социология: методология и методы. Москва.; 2011.
4. Ядов В.А. Стратегия социологического исследования: описание, объяснение, понимание социальной реальности: Учебник для студентов вузов. М.: Добросвет, 2008..
5. Earl Bable. The practice of social research. 2010. Wadsworth. CECGAGE Learning. USA.
6. Loraine Blaxter, Christina Hughes, Malcolm Tight. How to research. Fourth edition. Open University Press, 2010. England, UK.

2-Seminar

2-MAVZU: Tadqiqotlar o‘tkazish metodologiyasi, texnikasi, protsedurasi va metodlarini aniqlash, farqlari va o‘xhash jihatlari (4-SOAT)

Reja:

1. Tadqiqot muammosining aniq ifoda etilishi
2. Sotsiologik tadqiqot dasturini tuzish
3. Dasturning metodik qismi
4. Tadqiqot instrumentariyasi

Seminar mashg‘ulotini olib borish tartibi: Tinglovchilardan ixtiyoriy ravishda kichik guruhlar shakllantiriladi, mavzu buyicha asosiy tushunchalarni javdal va sxemalari shakllantiriladi. Tinglovchilar o‘zлari bajargan amallarini individual yoki guruhiy tarzda izohlab,himoya etadilar.

Seminar mashg‘ulotini olib borishda qo‘llaniladigan metodlar: “Bumerang”, “Charxpalak”, “Venna diagrammasi”, “BBB” , “FSMU”, “Tushunchalar izoxi”

“BLIS-SO‘ROV” METODI

“Blis-so‘rov” (inglizcha “blis” – tezkor, bir zumda) metodi berilgan savollarga qisqa, aniq va lo‘nda javob qaytarilishini taqozo etadigan metod sanaladi. Ta’lim muassasalarida ushbu metodga muvofiq savollar, asosan, o‘qituvchi tomonidan beriladi. Berilgan savollarga javoblar jamoaviy, guruhli, juftlik yoki individual tarzda qaytarilishi mumkin. Javob qaytarish shakli mashg‘ulot turi, o‘rganilayotgan mavzuning murakkabligi, tinglovchi larning qamrab olinishiga ko‘ra belgilanadi.

Mashg‘ulatlarda metodni qo‘llash quyidagicha kechadi:

O‘qituvchi o‘rganilgan mavzu, muayyan tarkibiy qismlar mohiyatining ochib berilishini talab etadigan savollarni ishlab chiqib, o‘quvchilar e’tiboriga havola qiladi

O‘quvchi (talaba)lar berilgan savolga qisqa muddatda lo‘nda, aniq javob beradi

Guruh (juftlik)da ishlashda bir nafar o‘quvchi berilgan savolga javob qaytaradi (uning guruhdoshlari javobni to‘ldiradi, (biroq, fikrlar akrorlanmasligi lozim)

Metodni qo‘llashda mavzuga doir tayanch tushunchalar, asosiy g‘oyalarning mohiyati tinglovchi lar tomonidan og‘zaki, yozma yoki tasvir (jadval, diagramma) tarzida yoritilishi mumkin.

Foydalanilgan uchun adabiyotlar:

1. Девятько И.Ф. Методы социологического исследования. Учебное пособие. Москва «Университет книжный дом», 2009.
2. Добреньков В.И. Кравченко А.И. Фундаментальная социология. 3-том. Методика и техника исследования. Москва.; ИНФРА-М. 2009
3. Горшков М. Шереги Ф. Прикладная социология: методология и методы. Москва.; 2011.
4. Ядов В.А. Стратегия социологического исследования: описание, объяснение, понимание социальной реальности: Учебник для студентов вузов. М.: Добросвет, 2008..
5. Earl Bable. The practice of social research. 2010. Wadsworth. CECGAGE Learning. USA.
6. Loraine Blaxter, Christina Hughes, Malcolm Tight. How to research. Fourth edition. Open University Press, 2010. England, UK.

3- Seminar

3-MAVZU: SIFATIY SOTSIOLOGIK TADQIQOTLAR DASTURI. (4-coat)

Reja:

1. Dasturning tezkorligi va eksplitsitligi
2. Dastur tuzishda mantiqiy ketma-ketlik
3. Dastur tuzish bosqichlari

Seminar mashg‘ulotini olib borish tartibi: Tinglovchilardan ixtiyoriy ravishda kichik guruqlar shakllantiriladi, mavzu buyicha asosiy tushunchalarni javdal va sxemalari shakllantiriladi. Tinglovchilar o‘zlari bajargan amallarini individual yoki guruhiy tarzda izohlab,himoya etadilar.

Seminar mashg‘ulotini olib borishda qo‘llaniladigan metodlar: “Bumerang”, “Charxpalak”, “Venna diagrammasi”, “BBB” , “FSMU”, “Tushunchalar izohi”


“ZAKOVATLI ZUKKO” METODI

Bilimlarni puxta o‘zlashtirishda tinglovchi larning fikrlash, tafakkur yuritish qobiliyatlariga ega bo‘lishlari muhim ahamiyatga ega.

Ushbu metod tinglovchi larda tezkor fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishga, ularning tafakkur tezliklarini aniqlashga yordam beradi. Uni qo‘llash o‘z xohishiga ko‘ra shaxsiy imkoniyatlarini sinab ko‘rish istagida bo‘lgan tinglovchi lar uchun qulay imkoniyatni yaratadi.

Bunda tinglovchi lar o‘qituvchi tomonidan berilgan savollarga qisqa muddatlarda to‘g‘ri, aniq javob qaytara olishlari zarur. Murakkablik darajasiga ko‘ra har bir savolga qaytarilgan to‘g‘ri javob uchun ballar belgilanadi. Yakuniy ballarning o‘rtacha arifmetik qiymatini topish asosida tinglovchi larning tafakkur tezligi aniqlanadi.

Mashg‘ulotlarda metodni qo‘llash orqali tinglovchi larning tafakkur tezligi quyidagi sxemaga asoslanuvchi faoliyat yordamida aniqlanadi:



Foydalanish uchun adabiyotlar:

1. Девятько И.Ф. Методы социологического исследования. Учебное пособие. Москва «Университет книжный дом», 2009.
2. Добреньков В.И. Кравченко А.И. Фундаментальная социология. 3-том. Методика и техника исследования. Москва.; ИНФРА-М. 2009
3. Горшков М. Шереги Ф. Прикладная социология: методология и методы. Москва.; 2011.
4. Ядов В.А. Стратегия социологического исследования: описание, объяснение, понимание социальной реальности: Учебник для студентов вузов. М.: Добросвет, 2008..
5. Earl Bable. The practice of social research. 2010. Wadsworth. CECGAGE Learning. USA.
6. Loraine Blaxter, Christina Hughes, Malcoln Tight. How to research. Fourth edition. Open University Press, 2010. England, UK.

4-MAVZU: ADABIYOTLAR, HUJJATLAR, BIRLAMCHI MA'LUMOTLAR TAHLILI

Reja:

1. So'rov yoki intervyu o'tkazish uchun joy va vaqtini belgilash
2. Intervyuerning tashqi ko'rinishi va kasbiy etikasi
3. Kontent-tahlil usuli
4. Hujjatli manbalar tahlili

Tayanch iboralar

Seminar mashg'ulotini olib borish tartibi: Tinglovchilardan ixtiyoriy ravishda kichik guruhlar shakllantiriladi, mavzu buyicha asosiy tushunchalarni javdal va sxemalari shakllantiriladi. Tinglovchilar o'zлari bajargan amallarini individual yoki guruhiy tarzda izohlab,himoya etadilar.

Seminar mashg'ulotini olib borishda qo'llaniladigan metodlar: "Bumerang", "Charxpalak", "Venna diagrammasi", "BBB", "FSMU", "Tushunchalar izohi"

Seminar mashg'ulotini olib borishda qo'llaniladigan metodlar: "Bumerang", "Charxpalak", "Venna diagrammasi", "BBB", "FSMU", "Tushunchalar izohi"
"BLIS-SO'ROV" METODI

"Blis-so'rov" (inglizcha "blis" – tezkor, bir zumda) metodi berilgan savollarga qisqa, aniq va lo'nda javob qaytarilishini taqozo etadigan metod sanaladi. Ta'lif muassasalarida ushbu metodga muvofiq savollar, asosan, o'qituvchi tomonidan beriladi. Berilgan savollarga javoblar jamoaviy, guruhli, juftlik yoki individual tarzda qaytarilishi mumkin. Javob qaytarish shakli mashg'ulot turi, o'rganilayotgan mavzuning murakkabligi, tinglovchi larning qamrab olinishiga ko'ra belgilanadi.

Mashg'ulotlarda metodni qo'llash quyidagicha kechadi:

O'qituvchi o'rganilgan mavzu, muayyan tarkibiy qismlar mohiyatining ochib berilishini talab etadigan savollarni ishlab chiqib, o'quvchilar e'tiboriga havola qiladi

O'quvchi (talaba)lar berilgan savolga qisqa muddatda lo'nda, aniq javob beradi

Guruh (juftlik)da ishlashda bir nafar o'quvchi berilgan savolga javob qaytaradi (uning guruhdoshlari javobni to'ldiradi, (biroq, fikrlar akrorlanmasligi lozim)

Metodni qo'llashda mavzuga doir tayanch tushunchalar, asosiy g'oyalarning mohiyati tinglovchi lar tomonidan og'zaki, yozma yoki tasvir (jadval, diagramma) tarzida yoritilishi mumkin.

Foydalanish uchun adabiyotlar:

1. Devyatko I.F. Metody sotsiologicheskogo issledovaniya. Uchebnoe posobie. Moskva «Universitet knijnyu dom», 2009.
2. Dobrenkov V.I. Kravchenko A.I. Fundamentalnaya sotsiologiya. 3-tom. Metodika i texnika issledovaniya. Moskva.; INFRA-M. 2009
3. Gorshkov M. Sheregi F. Prikladnaya sotsiologiya: metodologiya i metody. Moskva.; 2011.
4. Yadov V.A. Strategiya sotsiologicheskogo issledovaniya: opisanie, ob'yasnenie, ponimanie sotsialnoy realnosti: Uchebnik dlya studentov vuzov. M.: Dobrosvet, 2008..
5. Earl Bable. The practice of social research. 2010. Wadsworth. CECGAGE Learning. USA.
6. Loraine Blaxter, Christina Hughes, Malcoln Tight. How to research. Fourth edition. Open University Press, 2010. England, UK.

V. MUSTAQIL TA'LIM MAVZULARI

Mustaqil ishni tashkil etishning shakli va mazmuni

Tinglovchi mustaqil ishni muayyan modulni xususiyatlarini hisobga olgan xolda quyidagi shakllardan foydalanib tayyorlashi tavsiya etiladi:

- me'yoriy xujatlardan, o'quv va ilmiy adabiyotlardan foydalanish asosida modul mavzularini o'rganish;
- tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruzalar qismini o'zlashtirish;
- avtomatlashtirilgan o'rgatuvchi va nazorat qiluvchi dasturlar bilan ishlash;
- maxsus adabiyotlar bo'yicha modul bo'limlari yoki mavzulari ustida ishlash;
- tinglovchining kasbiy faoliyati bilan bog'liq bo'lgan modul bo'limlari va mavzularni chuqur o'rganish.

Mustaqil ta'lif mavzulari

1. Sotsiologik tadqiqot o'tkazishning nazariy va metodologik ahamiyati.
2. Sotsiologik tadqiqotda statistik uslub.
3. Sotsiologik tadqiqotda asosiy tushunchalarni interpretatsiya jarayoni.
4. Sotsiologik tadqiqotlarda saralab olish metodi.
5. Sotsiologik tadqiqotlarda o'lchov metodi.
6. Sotsiologiyada empirik ma'lumotlar tizimi.
7. O'lchov sotsiologik tadqiqotda analiz qilishning asosiy qismi sifatida.
8. Sotsiologiyaning ob'ekti va predmeti muammolarini yechishining zamonaviy tendensiyalari.
9. Empirik sotsiologiyaning metodologik va metodik muammolari.
10. Sotsiologik tadqiqot buyurtmasi va ijrosi o'zaro munosabati etikasi.
11. Tizimli tanlovda reprzentativlikni ta'minlash muammolari.
12. Yosh mutaxassis kadrlarda kasbiy mahorat ko'rsatkichlarini o'lhash.
13. Empirik sotsiologiyaning metodologik va metodik muammolari.
14. Tadqiqotlarda ob'ektiv va sub'ektiv ko'rsatishlar va ularning ahamiyati.
15. Sotsiologiyada sotsiometrik metodlar.
16. Sotsiologiyada eksperiment muammolari: tahlil tamoyilari.
17. Sotsioinjener faoliyati metodlari.
18. Sotsiologik tadqiqotlarda testlar.
19. Korrelyatsion va regression tahlil.
20. O'lhashning interval darajasi uchun bog'liqlik me'yori.

VI. KEYSLAR BANKI

Mini keys 1.

Jamiyatdagi o‘zgarishlarni sotsiologik tahlili

Jamiyatdagi o‘zgarishlar borasida tadqiqot olib borishda aniq hulosa chiqarish uchun sotsiologik tadqiqot muhim hisoblanadi. *Jamiyatning ijtimoiy rivojlanishiga qanday omillar ta’sir qiladi ?*

Keysni bajarish bosqichlari va topshiriqlar:

- Jamiyatdagi o‘zgarishlarni sotsiologik tahlil qilish borasidagi tadqiqot natijalari bilan tanishish.
- madaniy rivojlanishga ta’sir qiluvchi va to‘sqinlinlik qiluvchi omillarni bir-biri bilan solishtirish .
- Kompyuterda madaniy jarayonlarni modellashtirishga oid zarur dasturiy ta’minotlar tanlovi

VII. GLOSSARY

№	Ingilizcha	Ruscha	O'zbekcha	Ta'rifi
1	Method	Метод	Metod	Memor – ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash va tahlil qilishning ushbu usuli
2	Methodology	Методология	Metodologiya	Metodologiya - tadqiqot protseduralari, texnikasi va metodlari, jumladan, ma'lumotlar yig'ish va qayta ishlash metodlarini majmuidir.
3	Procedure	Процедура	Protsedura	Protsedura deyilganda esa odatda, barcha operatsiyalar ketma-ketligi, tadqiqotni tashkil etishning harakat va usullarining umumiy tizimi nazarda tutiladi. Bu umumiy yig'ma tushuncha bo'lib, sotsioloik ma'lumotlarni yig'ish va qayta ishlash usullari tizimiga taalluqli sanaladi.
4	Methodic	Методика	Metodika	Metodika — bu mazkur metod bilan bog'liq bo'lgan texnik usullar majmuini, jumladan xususiy operatsiyalar, ularning ketma-ketligi va o'zaro aloqasini ko'rsatadigan tushunchadir.
5	Methods and procedure of investigation	Методы и процедуры исследования	Tadqiqot metod va protseduralari	Tadqiqot metod va protseduralari — bu kerakli ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash va tahlil qilishning rasmiylashgan qoidalari tizimidir
6	Sociologic survey	Социологическое исследование	Sotsiologik tadqiqot	Sotsiologik tadqiqot bu o'rganilayotgan jarayon yoki hodisa to'g'risida ishonchli ma'lumotlarga ega bo'lish uchun yagona maqsad bilan bog'liq metodologik, metodik va tashkiliy-texnik protseduralarning mantiqan ketma-ketlik tizimidir.
7	Program of social research	Программа исследования	Tadqiqot dasturi	Tadqiqot dasturi - bajariladigan ishning asosiy maqsadlariga muvofiq uning nazariy metodologik asoslarini va tadqiqot ish tartibi ko'rsatilgan gipotezalari, hamda ularni tekshirish operatsiyalarining mantiqiy izchilligini bayon etishdir.
8	Practical sociological survey	Практическое социологическое исследование	Amaliy sotsiologik tadqiqotlar	Amaliy sotsiologik tadqiqotlar muayyan muddatlarda aniq harakat usullarini taklif etish orqali yetarlicha aniq belgilangan ijtimoiy muammolarning amaliy yechimini topishga yo'naltirilgan. Bu tadqiqotlar ba'zida ijtimoiy – muhandislik izlanishlari deb ataladi.
9	Intelligence research	Разведывательное исследование	Razvedkali tadqiqotlar	Razvedkali tadqiqot - konkret sotsiologik tadqiqotning eng oddiy turi bo'lib hisoblanadi. U mohiyatan chegaralangan vazifani hal etadi, odatda kam sondagi o'rganilayotgan majmuani qamrab oladi va qisqartirilgan dasturga asoslanadi. Razvedkali tadqiqotlar operativ (tezkor) informatsiya olish uchun xizmat qiladi. Bunday holatda uning ekspress so'rov turi

				haqida gapirish mumkin.
10	Describe survey	Описательное исследование	Tasviriy tadqiqotlar	Tasvirlovchi tadqiqot – sotsiologik tahsilning murakkabroq shakli hisoblanadi. O‘zining maqsad va vazifalariga ko‘ra, u o‘rganilayotgan jarayon, uning tarkibiy elementlari to‘g‘risida nisbatan to‘la tasavvur beradigan empirik ma’lumotlar olishni nazarda tutadi.
11	Analytical survey	Аналитическое исследование	Analitik tadqiqot	Analitik tadqiqot – bu sotsiologik tahsilning eng chuqurlashtirilgan turi hisoblanadi. U o‘z oldiga nafaqat o‘rganilayotgan hodisaning tarkibiy elementlarini tasvirlashni, balki sabablarni tushuntirishni maqsad qilib qo‘yadi.
12		Точечное исследование	Nuqtali tadqiqot	Nuqtali tadqiqot (uni bir martalik deb ham ataydilar) ijtimoiy hodisalarni o‘rganish vaqtida uning holati yoki miqdoriy tavsiflari to‘g‘risida axborotlar beradi.
13	Monographic survey	Монографическое исследование	Monografik tadqiqot	Monografik tadqiqot tor ma’noda- yaxshi ishlangan nazariya doirasida bir yoki bir necha obyektlarni tekshirishdir.
14	Sampling survey	Выборочное исследование	Tanlanadigan tadqiqotlar	Tanlanadigan tadqiqotlar , o‘zi va o‘z fikri to‘g‘risida axborot beruvchi maxsus tanlab olingan respondentlar guruhi orasida so‘rov o‘tkazish orqali kishilarning xattaharakatlari va maqsadlari to‘g‘risida ma’lumotlarni muntazam yig‘ib bori usulini namoyon etadi. U o‘z nomini tadqiqotlarning asosiy qismining (tanlanlab olinadigan yig‘indisi) ulkan birligi yig‘indisidan (bosh yig‘indidan) maxsus tanlab olish tartibotidan foydalanish orqali oladi, u yaxlit tadqiqotning asosiy o‘lchamlarini aniq aks ettiradi.
15	Full survey	Массовое исследование	Yalpi tadqiqot	Yalpi tadqiqot deb bosh to‘plamning barcha birliklarini qamrab oluvchi tadqiqotga aytildi. Bunga aholini ro‘yxatdan o‘tkazish kiradi.
16	Pre-researching	Повторное исследование	Takroriy tadqiqotlar	Takroriy tadqiqotlar – bu yagona dastur va instrumentariy bo‘yicha ma’lum vaqt oralig‘ida muntazam o‘tkazilgan va obyektning o‘zgarishlar dinamikasini tavsiflovchi natijalarni olish bilan bog‘liq bir necha tadqiqotlarning yig‘indisi.
17	Long time survey	Лонгитюдное исследование	Longityud tadqiqotlar	Logityud tadqiqotlar - shaxslarning bir guruhini uzoq vaqt o‘rganish
18	Panel survey	Панельное исследование	Panelli (yo‘lli) tadqiqot	Panelli (yo‘lli) tadqiqot – bir xil tanlovda yagona dastur bo‘yicha va ma’lum vaqt oralig‘ida yagona usul bo‘yicha o‘tkaziladigan tadqiqotlar. Maqsad - voqealar dinamikasi tahlili. Kishilar o‘zgarishi mumkin, lekin tadqiqot obyektlari o‘zgarmaydi (korxona, sexlar).

VIII. ADABIYOTLAR RO'YXATI

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari

1. Mirziyoyev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O'zbekiston”, 2017. – 488 b.
2. Mirziyoyev SH.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild. – T.: “O'zbekiston”, 2017. – 592 b.
3. Mirziyoyev SH.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. T.: “O'zbekiston”, 2018. – 507 b.
4. Mirziyoyev SH.M. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi. 3-jild.– T.: “O'zbekiston”, 2019. – 400 b.
5. Mirziyoyev SH.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild.– T.: “O'zbekiston”, 2020. – 400 b.

II. Normativ-huquqiy hujjatlar

11. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2023.
12. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrda qabul qilingan “Ta'lif to‘g‘risida”gi Qonuni.
13. O'zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonuni.
14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 12 iyundagi “Oliy ta'lif muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF-4732-sonli Farmoni.
15. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 maydag'i “O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5729-son Farmoni.
16. Ўзбекистон Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 avgustdag'i “Oliy ta'lif muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzlusiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5789-sonli Farmoni.
17. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 23 sentabrdagi “Oliy ta'lif muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 797-sonli Qarori.
18. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi “O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lif tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847- sonli Farmoni.
19. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni.
20. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 25-yanvardagi “Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini samarali yo'lga qo'yishga doir birinchi navbatdagi tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-14-sonli Farmoni.

III. Maxsus adabiyotlar

47. Oliy ta’limning meyoriy - huquqiy xujjatlari to‘plami. -T., 2013.
48. O‘rinov V. O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim muassasalarida ECTS kredit-modul tizimi: asosiy tushunchalar va qoidalar. O‘quv qo‘llanma. Nyu Bransvik Universiteti, 2020.
- 49.The European Higher Education Area. - Joint Declaration of the Ministers of Education. - Bologna, 1999, 19 June.
- 50.Shaping our Own Future in the European Higher Education Area // Convention of European Higher Education Institutions. - Salamanca, 2001, 29-30 march.
- 51.Virtualnaya realnost kak novaya issledovatelskaya i obrazovatelnaya sreda. Serfuz D.n. i dr. // JURNAL Nauchno-analiticheskiy журнал «Vestnik Sankt-Peterburgskogo universiteta Gosudarstvennoy protivopojarnoy slujbi MCHS Rossii», 2015. – s.185-197.
- 52.Ibraymov A.YE. Masofaviy o‘qitishning didaktik tizimi. Metodik qo‘llanma. – T.: “Lesson press”, 2020. -112 b.
- 53.Ignatova N. Y. Obrazovaniye v sifrovuyu epoxu: monografiya. M-vo obrazovaniya i nauki RF. – Nijniy Tagil: NTI (filial) UrFU, 2017. – 128 s. http://elar.urfu.ru/bitstream/10995/54216/1/978-5-9544-0083-0_2017.pdf
- 54.Kiryakova A.V, Olxovaya T.A., Mixaylova N.V., Zaporozko V.V. Internet-tehnologii na baze LMS Moodle v kompetentnostno-oriyentirovannom obrazovanii: uchebno-metodicheskoye posobiye / A.V. Kiryakova, T.A. Olxovaya, N.V. Mixaylova, V.V. Zaporozko; Orenburgskiy gos. un-t. – Orenburg: OGU, 2011. – 116 s. http://www.osu.ru/docs/fpkp/kiryakova_internet_technologies.pdf
- 55.Kononyuk A.YE. Oblachniye vichisleniya. – Kiyev, 2018. – 621 s.
- 56.Oliy ta’lim tizimini raqamli avlodga moslashtirish konsepsiysi. Yevropa Ittifoqi Erasmus+ dasturining ko‘magida. https://hiedtec.ecs.uniruse.bg/pimages/34/3._UZBEKISTAN-CONCEPT-UZ.pdf
- 57.Emelyanova O. A. Ta’limda bulutli texnologiyalardan foydalanish // Yosh olim. - 2014. - № 3. - S. 907-909.
- 58.Moodle LMS tizimida masofaviy kurslar yaratish. O‘quv-uslubiy qo‘llanma. – T.: Toshkent farmatsevtika instituti, 2017.
- 59.Tendensi i razvitiya visshego obrazovaniya v mire i v Rosii. Analiticheskiy doklad-daydjest. - M., 2021.- 198 s.
- 60.A.S. Zikriyoyev. Dunyo universitetlari reytingidagi tadqiqotchi olimlar orasida o‘zingizni kashf qiling. -T.: Navro‘z,2020. ISBN.9789943659285
- 61.Sherzod Mustafakulov, Aziz Zikriyoev, Dilnoza Allanazarova, Tokhir Khasanov, Sokhibmalik Khomidov. Explore Yourself Among World – Class Researchers. Grand OLEditor, Tashkent 2019, ISBN: 8175 25766-0.
- 62.Ackoff, Russell L., Scientific Method, New York: John Wiley & Sons, 1962.
- 63.Barzun, Jacques & Graff. F. (1990). The Modern Researcher, Harcourt, Brace Publication: New York.
- 64.Muslimov N.A va boshqalar. Innovatsion ta’lim texnologiyalari. O‘quv-metodik qo‘llanma. – T.: “Sano-standart”, 2015. – 208 b.
- 65.Muslimov N.A va boshqalar. Pedagogik kompetentlik va kreativ asoslari. O‘quv-metodik qo‘llanma. – T.: “Sano-standart”, 2015. – 120 b.

- 66.Pecherkina, A. A. Razvitiye professionalnoy kompetentnosti pedagoga: teoriya i praktika [Tekst] : monografiya / A. A. Pecherkina, E. E. Simanyuk, YE. L. Umnikova : Ural. gos. ped. un-t. – Yekaterinburg : [b.i.], 2011. – 233 s.
- 67.O.S. Frolova. Formirovaniye innovatsionnoy kompetensii pedagoga v protsesse vnutrishkolnogo povisheniya kvalifikatsii. Diss.k.p.n. Voronej 2018.
- 68.Kompetensii pedagoga XXI veka [Elektronniy resurs]: sb. materialov resp. konferensii (Minsk, 25 noyab. 2021 g.) / M-vo obrazovaniya Resp. Belarus, GUO «Akad. poslediplom. obrazovaniya», OO «Belorus. ped. o-vo». – Minsk: APO, 2021.
- 69.Ishmuhamedov R.J., M.Mirsoliyeva. O'quv jarayonida innovatsion ta'lif texnologiyalari. – T.: «Fan va texnologiya», 2017, 60 b.
- 70.Ishmuhamedov R, Mirsoliyeva M, Akramov A. Rahbarning innovatsion faoliyati. – T.: “Fan va texnologiyalar”, 2019.- 68 b.
- 71.Kodjaspirova G.M. Pedagogika v sxemax, tablitsax i opornix konspektax./ - M.:Ayris-press, 2016.
- 72.Natanzon E. Sh. Priyemi pedagogicheskogo vozdeystviya. - M, 2012. - 202 s.
- 73.Sergeev I.S. Osnovi pedagogicheskoy deyatelnosti: Uchebnoye posobiye. – SPb.: Piter, 2014.
- 74.Steve Taylor “Destination” Vocabulary and grammar”, Macmillan 2010.
- 75.Asekretov O.K., Borisov B.A., Bugakova N.Y. i dr. Sovremenniye obrazovatelniye texnologii: pedagogika i psixologiya: monografiya. – Novosibirsk: Izdatelstvo SRNS, 2015. – 318 s. <http://science.vvsu.ru/files/5040BC65-273B-44BB-98C4-CB5092BE4460.pdf>
- 76.Barkov S. A., Zubkov V.I. Sotsiologiya organizatsiy. M.: YURAYT, 2018.
- 77.Barkov S.A. Organizatsiya i rinok: protivoborstvo ili sogласие? M.: Izd-vo Moskovskogo universiteta, 2008.
- 78.Belogurov A.Y. Modernizatsiya protsessa podgotovki pedagoga v kontekste innovatsionnogo razvitiya obshestva: Monografiya. — M.: MAKS Press, 2016. — 116 s. ISBN 978-5-317-05412-0.
- 79.Bols N. Azbuka media. / Per. s nem. L.Ionin, A.Chernix. - M.: Yevropa, 2011. – 136 s. <http://en.bookfi.net/book/1405627>
- 80.Giddens E., Satton F. Osnovniye ponyatiya v sotsiologii. – M.: Izd. dom Visshey shkoli ekonomiki, 2018.
- 81.Gulobod Qudratulloh qizi, R.Ishmuhamedov, M.Normuhammedova. An'anaviy va noan'anaviy ta'lif. – Samarqand: “Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi” nashriyoti, 2019. 312 b.
- 82.Ibraymov A.YE. Masofaviy o'qitishning didaktik tizimi. metodik qo'llanma/tuzuvchi. A.YE. Ibraymov. – Toshkent: “Lesson press”, 2020. 112 bet.
- 83.Ignatova N. Y. Obrazovaniye v sifrovuyu epoxu: monografiya. M-vo obrazovaniya i nauki RF. – Nijniy Tagil: NTI (filial) UrFU, 2017. – 128 s. http://elar.urfu.ru/bitstream/10995/54216/1/978-5-9544-0083-0_2017.pdf
- 84.Yoas X., Knebel V. Sotsialnaya teoriya. 20 vvodnix leksiy. – SPb.: Aleteyya, 2015. <https://search.rsl.ru/ru/record/01007580496>
- 85.Istoriya sotsiologii (XIX – seredina XX veka). – M.: INFRA-M, 2004. <https://search.rsl.ru/ru/record/01002465303>

- 86.Ishmuhamedov R.J., M.Mirsoliyeva. O‘quv jarayonida innovatsion ta’lim texnologiyalari. – T.: «Fan va texnologiya», 2014. 60 b.
- 87.Kastels M. Vlast kommunikatsii: ucheb. posobiye / M. Kastels; per. s angl. N. M. Tilevich; pod nauch. red. A. I. Chernix; Nats. issled. un-t «Visshey shkola ekonomiki». — M.: Izd. dom Visshey shkoli ekonomiki, 2016. — 564 s. <https://yadi.sk/d/UC0SzNIk3Mj7qk>
- 88.Kimelev Y.A., Polyakova N.L. Modern i protsess individualizatsii: istoricheskiye sudbi individua moderna. – M.: IITS
- 89.Kolomiyets V. P. Sotsiologiya massovoy kommunikatsii v obshchestve kommunikatsionnogo izobiliya // Sotsiologicheskiye issledovaniya. 2017. №6. S.3-14. http://www.isras.ru/index.php?page_id=2624&jid=6721&jn=socis
- 90.Konetskaya V.P. Sotsiologiya kommunikatsii / V.P. Konetskaya. - M.: Mejdunarodniy universitet biznesa i upravleniya, 1997. – 304 s.
- 91.Muslimov N.A va boshqalar. Innovatsion ta’lim texnologiyalari. O‘quv-metodik qo‘llanma. – T.: “Sano-standart”, 2015. – 208 b.
- 92.Nazarov M.M. Massovaya kommunikatsiya i obshchestvo. Vvedeniye v teoriyu i issledovaniya / M.M. Nazarov. — M.: Librokom, 2014. — 354 s.

IV. Elektron ta’lim resurslari

- 10.www.edu.uz
- 11.www.aci.uz
- 12.www.ictcouncil.gov.uz
- 13.www.lib.bimm.uz
- 14.www.Ziyonet.Uz
- 15.www.sciencedirect.com
- 16.www.acs.org
- 17.www.nature.com
- 18.<http://www.kornienko-ev.ru/BCYD/index.html>